8. Wrede, M., Velamuri, V. K., & Dauth, T. (2020). Top managers in the digital age: Exploring the role and practices of top managers in firms' digital transformation. Managerial and Decision Economics, 41(8), 1549–1567. https://doi.org/10.1002/mde.3202

9. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). OECD digital economy outlook 2024. https://www.oecd.org/digital/

10. World Bank. (2025). Digital development. https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment

11. International Telecommunication Union. (2024). Measuring digital development: Facts and figures 2024. https://www.itu.int/

12. United Nations Development Programme. (2024). Institutionalizing digital transformation in Uzbekistan. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/institutionalizing-me-uzbekistans-digital-transformation

13. Asian Development Bank. (2024). Uzbekistan: Economy and digital transformation. https://www.adb.org/countries/uzbekistan/main

14. World Economic Forum. (2024). The future of the digital economy. https://www.weforum.org/

15. Food and Agriculture Organization. (2024). Digital technologies in agriculture and rural areas. https://www.fao.org/

16. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). Digital economy reforms in Uzbekistan. https://www.ebrd.com/

17. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2025). Digital Uzbekistan–2030 initiatives. https://digital.uz/

18. IT Park Uzbekistan. (2025). Annual report 2025. https://it-park.uz/

19. DataReportal. (2025). Digital 2025: Uzbekistan. https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan

20. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Annual report 2024. https://cbu.uz/en/

21. Mühlburger, M., & Krumay, B. (2024). Towards a context-sensitive conceptualisation of digital transformation. Journal of Information Technology, 39(4). https://doi.org/10.1177/02683962231219514

22. Talafidaryani, M., Jalali, S. M. J., & Moro, S. (2021). Digital transformation: Toward new research themes and collaborations yet to be explored. Business Information Review, 38(2), 89–95. https://doi.org/10.1177/0266382120986035

23. Bican, P. M., & Brem, A. (2020). Digital business model, digital transformation, digital entrepreneurship: Is there a sustainable “digital”? Sustainability, 12(13), 5239. https://doi.org/10.3390/su12135239

24. World Bank. (2021). World development report 2021: Data for better lives. https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2021

25. United Nations. (2024). United Nations e-government survey 2024. https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TEKSHIRUVLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Raxmonova Zebiniso Abdihalimovna

e-mail: zebinisoraxmonova1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi va audit tekshiruvlarini raqamli iqtisodiyot asosida tashkil etish va xalqaro standartlar asosida shakllantirishning dolzarbliligi, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish mohiyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishning ahamiyati va bugungi kundagi qonunchilik va yangiliklar haqida ham alohida to`xtalib o`tilgan.*

Kalit sozlar: *Raqamli iqtisodiyot, xalqaro audit standartlari, audit tekshiruvlarida samarali foydalaniladigan axborot texnologiyalari, xalqaro investitsiyalar, buxgalteriya hisobotlari, audit va buxgalteriyani avtomatlashtirish, elektron audit, soliq hisobotlari, moliyaviy hisobotlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальность организации бухгалтерского учета и аудиторских проверок на основе цифровой экономики, а также их формирования в соответствии с международными стандартами. Особое внимание уделяется сущности совершенствования бухгалтерского учета и финансовой отчетности в условиях цифровой экономики на основе международных стандартов, значению развития бухгалтерского учета и аудита в современных условиях цифровой трансформации, а также анализу действующего законодательства Республики Узбекистан и последних реформ и нововведений в данной сфере.*

Ключевые слова: *Цифровая экономика, международные стандарты аудита, информационные технологии, эффективно применяемые при проведении аудиторских проверок, международные инвестиции, бухгалтерская отчетность, автоматизация бухгалтерского учета и аудита, электронный аудит, налоговая отчетность, финансовая отчетность.*

Abstract. *This article examines the relevance of organizing accounting and audit activities within the framework of the digital economy and developing them in accordance with international standards. Particular attention is paid to the essence of improving accounting and financial reporting based on International Financial Reporting Standards (IFRS) in the context of the digital economy, the importance of developing accounting and auditing under digital transformation, as well as an analysis of the current legislation of the Republic of Uzbekistan and recent reforms and developments in this field.*

Keywords: *Digital economy, International Standards on Auditing (ISA), information technologies effectively used in audit engagements, international investments, accounting reports, accounting and audit automation, electronic auditing (e-audit), tax reporting, financial reporting.*

Kirish. Hozirgi iqtisodiyotimizning yanada rivojlanib va takomillashib borayotgan bir vaqtda raqamli iqtisodiyot hamda buxgalteriya va audit hisobotlarini xalqaro standartlari asosida o`tkazish bir biri bilan chambarchas bog`liq. Chunki iqtisodiyotning raqamlashtirilishi moliyaviy axborotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilishni talab etsa, xalqaro standartlar (IFRS/MHXS va ISA) ushbu axborotlarning ishonchliligi, taqqoslanishi va shaffofligini ta'minlaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish, auditorlik faoliyatini xalqaro talablarga moslashtirish hamda buxgalteriya tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar (cloud computing), katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) va blokcheyn kabi texnologiyalar asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimidir.

Buxgalteriya va audit hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishda, yuritishda va takomillashtirishda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati, o`rni, dolzarbliliga alohida e`tibor bermoq lozim. Agarda biz buxgalteriya hisobi va audit tekshiruvlarini bosqichma bosqich hamda raqamli iqtisodiyot tamoyillari asosida hamda xalqaro standartlardan foydalangan holda tuzishni birgalikda yo`lga qo`ysak, amaliyotga tadbiq etsak oldimizga qo`ygan maqsadlarimizga yanada aniq va mustahkam tarzda erishgan bo`lamiz. Chunki doimo rivojlanib borayotgan va takomillashishdan to`xtamoqtgan zamon va iqtisodiyot talabi ham unga mos ravishda o`sishlikdan to`xtamaslik hisoblanadi.

Asosiy qism. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va buxgalteriya hamda audit tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida yuritishning uzviy bog`liqligi va bosqichlari haqida alohida to`xtalib o`tmoqchimiz.

Avvalo hisob jarayonlarini raqamlashtirish va amaliyotda qo`llash bosqichidan boshlaydigan bo`lsak, bung quyidagi amallarni asos qilib olsak bo`ladi.

- Korxonalarda ERP tizimlari, elektron hujjat aylanishi va bulutli buxgalteriya dasturlaridan foydalanish hisob jarayonlarini avtomatlashtiradi.
- Natijada inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolar kamayadi, ma'lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Navbatdagi bosqich esa buxgalteriya hisobotlarini tuzishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (MHXS/IFRS) qo‘llash hisoblanib, uning ahamiyati va dolzarbliligiga alohida to`xtalib o`tish lozim.

- Raqamli platformalar MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni avtomatik shakllantirish imkonini beradi.

- Bu investorlar, kreditorlar va xalqaro moliya institutlari uchun hisobotlarning tushunarli va taqqoslanadigan bo‘lishini ta'minlaydi. Hamda ularni jalb qilishda va jahon bozoriga kirishga alohida ahamiyat ko`rsatadi.

Audit sifatining oshishi va kelajakda olinadigan qarorlarning natijasida xatolarning oldi olinishi kabi ta`kidlash lozim bo`lgan bosqich ham dolzarbliligini ko`rsatadi.

- Raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlar katta hajmdagi ma'lumotlarni Data Analytics, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan audit vositalari yordamida tahlil qilishi mumkin.
- Bu auditning tezligi va aniqligini oshirib, tavakkalchiliklarni samarali aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ahamiyatliligi va dolzarbliligi bilan alohida e`tibor berilib kelinayotgan masalalardan biri shaffoflik va korrupsiyani kamaytirish vazifasini ham bajarilishiga yordam berishini alohida ta`kidlash lozim.

- Elektron hisob-kitoblar va raqamli izlar (digital footprint) barcha moliyaviy operatsiyalarni kuzatish imkonini beradi.
- Xalqaro audit standartlari esa ushbu ma'lumotlarning haqqoniyligini mustaqil baholashni ta'minlaydi.

Iqtisodiyotimiz rivoji va jahon bozoriga kirishi uchun ahamiyatli ko`rsatkichlardan biri bo`lib xizmat qiladigan investitsion jozibadorlikning ortishi va barqarorlashuvi bosqichi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

- Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar xorijiy investorlar uchun ishonchli axborot manbai hisoblanadi.
- Raqamli boshqaruv esa axborotlarning tezkor va ochiq taqdim etilishini ta'minlaydi.

O‘zbekistonda "Raqamli O‘zbekiston" doirasida davlat boshqaruvi va biznesni raqamlashtirish bilan bir qatorda, MHXS va xalqaro audit standartlarini joriy etish

iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu quyidagi natijalarga xizmat qiladi:

- faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi;
- mahalliy korxonalarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishni osonlashtiradi;
- raqamlashtirish asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning sifati va ishonchliligini oshiradi;
- audit xizmatlari sifatini xalqaro darajaga olib chiqadi;
- davlat va xususiy sektor boshqaruvida shaffoflikni kuchaytiradi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditning xalqaro standartlar asosida tashkil etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar hisob va audit jarayonlarini tezkor, aniq va shaffofligini oshiradi, MHXS (IFRS) hamda ISA esa ushbu jarayonlarning xalqaro talablarga asosida ekanligini ta'minlaydi. Natijada moliyaviy hisobotlarning sifati oshadi, investorlar ishonchi mustahkamlanadi, kapital bozorining jozibadorligi ortadi va mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyasi jadallashadi. Shu bois raqamlashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish va mutaxassislar salohiyatini oshirish O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o'zaro bog'liq va strategik yo'nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IFRS Foundation. *International Financial Reporting Standards (IFRS).* London: IFRS Foundation, 2024.

2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance and Related Services Pronouncements.* New York: IFAC, 2024.

3. Deloitte Global. Global Audit Quality Report 2022–2023. – London: Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2023.

4. Ernst & Young. EY Global Audit Quality Report 2023. – London: EYGM Limited, 2023.

5. KPMG International. KPMG Global Audit Quality Report 2023. – Zurich: KPMG International Cooperative, 2023.

6. PricewaterhouseCoopers. PwC Global Audit Quality Report 2023. – London: PricewaterhouseCoopers International Limited, 2023.

7. IFAC (International Federation of Accountants). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – New York: IAASB, 2022.

8. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance and Related Services Pronouncements.* New York: IFAC, 2024.

9. Vasarhelyi M. A., Kogan A., Tuttle B. M. Big data in accounting: An overview // *Accounting Horizons*. – 2015. – Vol. 29, No. 2. – P. 381–396.

10. Menglikulov, B. Y. (2023). *Improving the Accounting Policy of Uzbekistan Based on IFRS. International Journal of Business Diplomacy and Economy*, 2(6), 142–150.

11. Toshmatov A., Yusupov B. O‘zbekistonda xalqaro audit standartlarini joriy etish muammolari // *Moliya va hisob*. – 2021. – №3(18). – B. 45–58.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 1-aprel, №614.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2022-yil 14-noyabr, PF–431.

14. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. O`RQ – 404, 2021-yil 13-aprel (o`zgartirish va qo`shimchalari bilan)

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori. PQ – 4611, 2020-yil 24-fevral.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MODELLARI

Yoqubjonov Rahmonjon Rahimjon o‘g‘li

Namangan Davlat Universiteti

rahmonjonyoqubjonov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini boshqarishda rivojlangan xorij davlatlari — Janubiy Koreya va Turkiya tajribasini O‘zbekiston iqtisodiyotiga moslashtirishning innovatsion modellari va mexanizmlari tadqiq etilgan. Kichik korxonalarning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini baholashda mavjud an’anaviy boshqaruv metodlari tahlil qilinib, xorij amaliyoti asosida subyektlarning resurslar cheklanganligi va moslashuvchanlik xususiyatlarini inobatga oluvchi, eksport faoliyatini boshqarish samaradorligini ifodalovchi "eksportboplikning integral ko‘rsatkichi"ni aniqlash usullari takomillashtirilgan. Tadqiqotda Janubiy Koreyaning texnologik standartlashtirish va Turkiyaning klasterli eksport modellaridan kelib chiqib, raqamli platformalar, xalqaro logistika hamda innovatsion marketing yondashuvlari orqali mahalliy kichik biznes mahsulotlarining eksport faoliyatini innovatsion boshqarish va eksport tannarxini optimallashtirish omillari miqdoriy tahlil yordamida asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kichik biznes, eksport faoliyati, innovatsion modellar, raqamli platformalar, tannarx optimallashuvi, miqdoriy tahlil, klasterli eksport.*

Kirish. Raqobatbardoshlikni baholash, korxonalarning eksport salohiyatini aniqlash hamda ularning eksport faoliyatini innovatsion boshqarish muammosi bugungi kunda universal va global xususiyatga ega. Ayniqsa, O‘zbekiston iqtisodiyoti globallashuvi, Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuvi va xalqaro transport koridorlariga chiqishi sharoitida, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarda yashab qolishi uchun raqobat muhiti misli ko‘rilmagan darajada keskinlashmoqda.[1]

Bunday sharoitda kichik biznesni eksportga yo‘naltirish va uning tashqi iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, boshqaruvning innovatsion modellarini, xususan, raqamli platformalarga asoslangan ekotizimlarni klasterli-kooperatsion tizimlarni hamda moslashuvchan gibrid strategiyalarni tizimli tadqiq etish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirishning zamonaviy mexanizmlarini qo‘llash zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Kichik biznes subyektlarining xalqaro miqyosda mahsulot raqobatbardoshligiga erishishi — bu nafaqat xorijiy bozor ulushini egallash, balki innovatsiyalar, xalqaro sifat standartlari *ISO, CE, Halal* va zamonaviy raqamli marketing strategiyalari orqali xorijiy iste’molchi uchun yangi qiymat yaratish hamda buni innovatsion modellar yordamida boshqarish qobiliyatidir. Kichik korxonaning tashqi bozordagi barqarorligi va eksport geografiyasining kengayishi uning boshqaruv tizimi qanchalik raqamlashtirilganligi, bojxona, texnik va logistika to‘siqlariga moslashuvchanligi hamda xorijiy iste’molchi talablarini tezkorlik bilan qondira olish xususiyatlariga bevosita bog‘liq[2]. Ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar o‘z resurslari cheklangan sharoitda ham boshqaruvning innovatsion modellari integratsiyasi, raqamli platformalar va jamoaviy klaster infratuzilmalari hisobiga global qiymat zanjirlariga muvaffaqiyatli integratsiyalasha oladi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalari uchun eksport faoliyatini boshqarishning innovatsion modellarini o‘zlashtirish va innovatsion faollik — bu shunchaki ixtiyoriy tanlov emas, balki global raqobat asrida yashab qolish va barqaror o‘sishning eng muhim shartidir. O‘zbekistonda tashqi bozorlarda ijobiy natijalarga erishish uchun korxona rahbariyati va davlat regulyatorlari nafaqat ichki resurslarni (xomashyo, mehnat unumdorligi), balki xalqaro sertifikatlashtirish, raqamli eksport platformalari va logistika innovatsiyalarini joriy etish orqali korxonaning eksport salohiyatini belgilovchi omillarni doimiy ravishda monitoring qilib borishi

hamda boshqaruvning zamonaviy transformatsiya modellaridan unumli foydalanishi zarur[3].

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida tashqi bozorlarga chiqish va u yerda barqaror mavqega ega bo‘lish kichik biznes subyektlarining strategik maqsadi hisoblanadi. Global bozor sharoitida kichik korxonalar uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirish va boshqarish muammosi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayonga nafaqat ichki boshqaruv sifati va mahsulot tannarxi, balki tashqi muhit omillari — maqsadli davlatlarning tarif va notarif cheklovlari, logistika zanjirining samaradorligi hamda mahsulotning innovatsionlik darajasi, ya’ni uning xorijiy analoglardan texnologik, ekologik va funksional jihatdan ustunligi bevosita va keskin ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish uchun an’anaviy metodlardan voz kechib, ularning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini raqamli va klasterli modellar yordamida tizimli hamda tezkor baholash, so‘ngra boshqaruvning maqsadli innovatsion mexanizmlarini joriy etish lozim.

Kichik biznes subyektlarining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari va ularni belgilovchi omillarni baholash usullarini eksport faoliyatini boshqarishning quyidagi innovatsion va xalqaro mezonlari bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiq:

- Korxonaning xalqaro bozordagi innovatsion mavqei. Subyektning tashqi bozorlardagi texnologik trendlarga va raqamli transformatsiyaga moslasha olish darajasini belgilovchi texnologik-innovatsion boshqaruv modeli.

- Eksportbop mahsulotning hayotiylik sikli va yangilanish darajasi**.** Tashqi bozorda mahsulotning ma’nan eskirish tezligi hamda uni innovatsion modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash imkoniyatlari.

- Eksport salohiyati ko‘rsatkichlarini hisoblashning soddalashtirilgan mexanizmlari**.** Kichik biznes uchun ortiqcha byurokratiyasiz, operatsion resurslarni tejaydigan raqamlashtirilgan ekspress-testlar va tezkor skoring baholash modellari.

- Eksport faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish natijasida kutilayotgan prognozlar. Tashqi bozorga chiqish orqali korxona rentabelligining o‘sish ko‘rsatkichlari, mahsulotning xalqaro standarti, eksport tannarxi va innovatsion jozibadorligi hamda logistika va bojxona xarajatlari bilan birgaliqdagi yakuniy tannarx optimallashuvi.

Kichik biznes sharoitida resurslar cheklanganligi sababli xalqaro bozor imkoniyatlarini baholash va eksport faoliyatini boshqarishning eng real va samarali metodi — bu tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarining integral ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkich eksportbop mahsulotning alohida xususiyatlari, makro va mikro darajadagi guruh mezonlarini umumlashtirgan holda, korxonaning xalqaro iqtisodiy makondagi aniq va operatsion pozitsiyasini ko‘rsatib beradi[4]. Kichik biznes subyektlari uchun ushbu resurs va omillar yondashuvi bo‘yicha eksport faoliyatini innovatsion boshqarish va baholashni 3 bosqichda amalga oshirish taklif etiladi.

1-bosqich. Birlik ko‘rsatkichlarni hisoblash. Bu bosqichda eksportbop mahsulotning xalqaro texnik parametrlari, muvofiqlik sertifikatlari *ISO, CE, Halal* mavjudligi, innovatsiya xarajatlari hamda xorijiy bozorlar talablariga moslik darajasi alohida miqdoriy baholanadi. Innovatsion boshqaruv modeliga ko‘ra, kichik korxonalarning xalqaro patent va sertifikatlar olish xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmlarining joriy etilishi birlik ko‘rsatkichlarni yaxshilashda asosiy drayver hisoblanadi.

2-bosqich. Guruh ko‘rsatkichlarini shakllantirish. Alohida ko‘rsatkichlar tahlili umumlashtirilib, quyidagi tizimli innovatsion guruhlarga birlashtiriladi:

- Iqtisodiy guruh. Eksport tannarxi, transport-logistika xarajatlari va valyuta kursi tebranishlari xavfi.
- Texnik-texnologik guruh. Mahsulotning innovatsiyaviyligi, xalqaro standartlar va ekologik qadoqlash sifati.

- Marketing guruhi. Xorijiy bozordagi raqobat muhiti, raqamli brend tanilishi va B2B/B2C elektron savdo platformalaridan foydalanish darajasi.

Innovatsion modellar doirasida ushbu guruhlarni yaxshilash korxonalarning logistik va marketing xarajatlarini klasterli-kooperatsion usulda optimallashtirish orqali hal etiladi.

3-bosqich. Integral ko‘rsatkichni aniqlash. Vaznli koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda, kichik biznes korxonasining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarining yakuniy integral ko‘rsatkichi hisoblab chiqiladi va korxonaning eksportga tayyorlik darajasi yuqori, o‘rta, past aniqlanadi. Eksport faoliyatini boshqarishning ushbu innovatsion modeli mahalliy amaliyotda vakolatli davlat organlari tomonidan korxonalarga moliyaviy-regulyatorik subsidiyalar va preferensiyalar ajratishda asosiy mezon skoring tizimi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Resurs va omillarga asoslangan ushbu metod kichik biznes korxonalarida bir necha yillik tashqi savdo faoliyati ma’lumotlari mavjud bo‘lgan taqdirda, eksport imkoniyatlari va raqobatbardoshlik dinamikasini vaqtlar kesimida kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, tarmoqdagi yoki maqsadli xorijiy bozordagi boshqa subyektlar to‘g‘risida yetarli axborot to‘plangan holda, reyting baholash orqali korxonaning xalqaro raqobatchilarga nisbatan o‘rnini aniqlash mumkin.

Biroq, xalqaro amaliyotda, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlar iqtisodiyotida kichik biznes sharoitida ushbu metod ma’lum cheklovlarga ega.

- Birinchidan**,** kichik korxonalarda ko‘pincha tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha tizimli statistik ma’lumotlar bazasi shakllanmagan bo‘ladi.

- Ikkinchidan**,** o‘zgaruvchan global bozor konyunkturasi, geosiyosiy vaziyat, logistika zanjiridagi uzilishlar va xorijiy iste’molchilarning innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabi tez o‘zgarishi sharoitida birlik ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash metodologik murakkablik tug‘diradi.

Eksport faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellarida ushbu ko‘rsatkichlarni nisbiy foiz va indeks miqdorlarga o‘tkazish yakuniy baholashdagi subyektivlikni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatidagi imkoniyatlarini xalqaro amaliyot kontekstida tizimli o‘rganish va ularni samarali boshqarish uchun quyidagi fundamental nazariy-innovatsion yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda qo‘llash maqsadga muvofiq.

1. Eksportbop mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishga yo‘naltirilgan model. Kichik biznesda korxonaning xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyati bevosita mahsulotning xorijiy iste’molchi tomonidan tan olinishiga bog‘liq. Bu yondashuv innovatsion mahsulotning global sifat-narx nisbatini optimallashtirishni nazarda tutadi. Har bir mahsulot turi bo‘yicha tashqi bozordagi sotish hajmi va xalqaro innovatsion jozibadorlik koeffitsiyenti aniqlanadi. Tadqiqot markazida aynan eksportbop tovar turishi, kichik biznesning tashqi bozorga chiqishida asosiy drayverdir[5]. Boshqaruvning ushbu modelida davlat tomonidan aynan eksportbop va global jozibadorlikka ega, yuqori texnologik brend tovarlarni ishlab chiquvchi innovatsion kichik korxonalarni maqsadli va dasturiy moliyalashtirish mexanizmlari ustuvor hisoblanadi.

2. Samarali xalqaro raqobat va tizimli integratsiya modeli. Ushbu innovatsion modelga ko‘ra, eksportga yo‘naltirilgan kichik korxona — bu uning barcha bo‘linmalari ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘limi, xalqaro marketing, moliya xalqaro bozor talablariga moslashgan yaxlit ekotizimdir. Korxonaning mavjud innovatsion resurslari xalqaro patentlar, tillarni biluvchi malakali kadrlar, eksportni raqamlashtirish va e-export texnologiyalari ball tizimida baholanadi va ichki resurslar integratsiyasi ta’minlanadi. Ushbu boshqaruv tizimi vakolatli tuzilmalar tomonidan korxonalarni eksport diagnostikasidan o‘tkazish va xodimlarning tashqi iqtisodiy

faoliyat malakasini oshirish xarajatlarini subsidiyalash orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

3. Kompleks va potensial eksportboplikni prognozlashtirish modeli. Kichik biznes uchun eng istiqbolli va innovatsion yondashuv — bu nafaqat hozirgi eksport hajmini, balki korxonaning kelajakdagi eksport potensialini hamda innovatsion salohiyatini baholash va rejalashtirishdir. Joriy eksport imkoniyatlari mahsulotning bugungi ko‘rsatkichlari sertifikatlar, joriy bozor ulushi orqali, potensial imkoniyatlar esa korxonaning yangi xalqaro standartlarni tezkor o‘zlashtirish va yuqori moslashuvchanlik qobiliyati orqali aniqlanadi. Bu model uzoq muddatli strategik boshqaruv va global bozorning kutilmagan tebranishlariga tayyor turish imkonini beradi[3]. O‘zbekistonda ushbu boshqaruv modelini qo‘llash orqali kichik korxonalarni shunchaki xomashyo emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar eksporti potensiali bo‘yicha strategik guruhlash imkoni tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Maksimov I.A. Sanoat korxonasi raqobatbardoshligini baholash. – M.: Yuniti-Dana, 2007. – 36-b.

2. Belousov V.L. Firma raqobatbardoshligini tahlil qilish. – M.: Yuniti-Dana, 2001. – 25-b.

3. Schumpeter J.A. Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Harvard University Press, 1934.

4. Sirojiddinov K.I. Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashning uslubiy yondashuvlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – №10. – B. 960-965.

5. Tajibayev K.Q. Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar // Green Economy and Development. – 2024. – T. 2. – № 1. – B. 66-72.

6. O‘zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 24-iyul.

7. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining innovatsion samaradorligini baholash metodikasi. Statistik to‘plam. – Toshkent: Stat.uz, 2024.

8. Ablaev A.R., Ablaev R.R. Korxona raqobatbardoshligini baholash metodlarini tanlash. – M.: Direkt-Media, 2007. – 43-b.y

9. Сирожиддинов К. И., Тохирова Г. Т. РАЗВИВАЮЩАЯСЯ СФЕРА УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА //TIU Journal of Digital Economy and Business. – 2023. – Т. 2. – №. 2.

10. Якубжанов Р. Роль Сельского Хозяйства В Экономике Нашей Страны //Универсальная индексная библиотека Центрально-Азиатского журнала образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 5 Part 3. – С. 59-67.

CONTINUOUS EDUCATION, CREATIVE PEDAGOGY, AND FACTORS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

PEDAGOGICAL MODELS FOR GREEN CLIMATE EDUCATION IN BIOLOGY TEACHING: DEVELOPING ECOLOGICAL RESPONSIBILITY AND SUSTAINABLE LIFESTYLE COMPETENCIES

Abduraxmanova Iqbolxon Yulchiyevna

Biology Teacher, Academic Lyceum of Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

abdurahmonova.iqbolxon@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida biologiya o‘qitish jarayonida yashil iqlim ta’limi asosida o‘quvchilarda ekologik mas’uliyat va barqaror hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan uch bosqichli pedagogik model tizimi — METI (paradigmatik-nazariy), O‘UM-EKO (didaktik, fanlararo integratsiya) va RIETM (resurs-texnologik, raqamli-interfaol) — tahlil qilinadi. Model UNESCO ning ESD for 2030 dasturi, Yevropa Ittifoqining GreenComp barqarorlik kompetensiyalari hamda OECD Learning Compass 2030 ta’lim kompasida belgilangani kabi xalqaro mezonlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ishlab chiqilgan. Maqolada O‘zbekistonning geoekologik konteksti, xususan Orol dengizi inqirozi misolida fanlararo integratsiya mexanizmlari ko‘rib chiqilgan va iqlim o‘zgarishi mavzusini biologiya faniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: yashil iqlim ta’limi, ekologik mas’uliyat, barqaror hayot tarzi, biologiya o‘qitish metodikasi, fanlararo integratsiya, pedagogik tizim.

Аннотация. *В данной статье анализируется трехуровневая система педагогических моделей, направленная на формирование у учащихся экологической ответственности и устойчивого образа жизни на основе*

зелёного климатического образования в процессе обучения биологии в системе общего среднего образования. Система включает три взаимосвязанные модели: ***METI*** *(парадигматико-теоретическая),* ***O‘UM-EKO*** *(дидактическая, основанная на междисциплинарной интеграции) и* ***RIETM*** *(ресурсно-технологическая, цифровая и интерактивная).*

Разработанная модель согласована с международными ориентирами, в частности с программой ***UNESCO «Education for Sustainable Development: ESD for 2030»,*** *рамкой компетенций устойчивого развития* ***GreenComp*** *Европейского союза и концептуальной моделью* ***OECD Learning Compass 2030.***

В статье рассматриваются механизмы междисциплинарной интеграции с учётом геоэкологического контекста Узбекистана, в частности на примере кризиса Аральского моря. Кроме того, представлены методические рекомендации по интеграции проблематики изменения климата в содержание школьного курса биологии.

Ключевые слова: зелёное климатическое образование, экологическая ответственность, устойчивый образ жизни, методика преподавания биологии, межпредметная интеграция, педагогическая система.

Abstract. *This article analyzes a three-tier pedagogical model system designed to foster students’ ecological responsibility and sustainable lifestyles through green climate education in the process of biology teaching at the general secondary education level. The system comprises three interconnected models:* ***METI*** *(Paradigmatic-Theoretical Model),* ***O‘UM-EKO*** *(Didactic Model Based on Interdisciplinary Integration), and* ***RIETM*** *(Resource-Technological Model with Digital and Interactive Components).*

The proposed model has been developed in alignment with internationally recognized frameworks, including ***UNESCO’s Education for Sustainable***

Development: ESD for 2030*, the* ***European Union's GreenComp Sustainability Competence Framework,*** *and the* ***OECD Learning Compass 2030.***

The article examines mechanisms of interdisciplinary integration within the geoecological context of Uzbekistan, with particular emphasis on the ***Aral Sea crisis*** *as a representative case. It also presents methodological recommendations for integrating climate change education into the secondary school biology curriculum.*

Keywords: green climate education, ecological responsibility, sustainable lifestyle, biology teaching methodology, interdisciplinary integration, pedagogical system.

1. Introduction

The intensification of global environmental degradation and climate volatility has placed education systems under growing pressure to reorient their goals toward sustainability. The World Commission on Environment and Development defined sustainable development as development that meets present needs without compromising the ability of future generations to meet their own — a formulation that remains the conceptual anchor of environmental pedagogy [1]. Sachs extends this into a triadic understanding of sustainability as the integration of economic development, social inclusion, and environmental integrity within one system [3], while Raworth's doughnut framework situates human wellbeing between a social foundation and an ecological ceiling [4]. Applied to schooling, both imply that ecological content cannot be taught as an isolated topic but must be integrated across biology, chemistry, geography, mathematics, and informatics.

In an earlier study, the author examined the integration of climate change content into the biology curriculum as a means of developing students' social responsibility [7]. The present article extends that work by embedding the integration mechanism within a complete, hierarchically structured pedagogical system and by situating it explicitly

within international sustainability frameworks and Uzbekistan's geoecological context — most notably the Aral Sea crisis, which makes green climate education a matter of immediate civic relevance rather than an abstract international obligation.

2. Theoretical and International Framework

Three international frameworks inform the proposed system. UNESCO's Education for Sustainable Development: A Roadmap sets out the ESD for 2030 programme, calling for a structural reorientation of education toward sustainability through a Whole Institution Approach and through building educators' own sustainability competence [2]. The EU's GreenComp identifies twelve interrelated sustainability competences across four areas — embodying values, embracing complexity, envisioning sustainable futures, and acting for sustainability [5]. The OECD Learning Compass 2030 reframes education around student agency and transformative competencies, encouraging learners to navigate complex, unfamiliar problems rather than receive fixed instructions [6].

Together, these frameworks converge on a shared premise: sustainability education must combine values, systemic understanding, and agency rather than isolated factual knowledge. This premise, together with the interdisciplinary logic advanced in the author's earlier work [7], underlies the three-tier model presented below, which is further calibrated to Uzbekistan's national education reform agenda and to the specialty of biology teaching methodology (13.00.02).

3. The METI–O‘UM-EKO–RIETM Pedagogical System

The system consists of three hierarchically linked models. METI (paradigmatic-theoretical) forms the conceptual foundation, drawing on transformative learning theory to move students from descriptive knowledge of ecosystems toward critical

reassessment of their own consumption habits and civic responsibilities — rather than treating ecological responsibility as a fact to be memorized.

O‘UM-EKO (didactic, interdisciplinary integration) operationalizes this foundation into concrete didactic tools linking biological content — energy flow, biodiversity, human physiology — with chemistry (pollution, water quality), geography (climate systems, the Aral Sea basin), mathematics (statistical interpretation of environmental data), and informatics (digital modeling). This cross-referencing builds directly on the integration mechanism proposed in the author's earlier study [7], extending it from a single-theme intervention into a systematic didactic architecture applicable across the biology curriculum.

RIETM (resource-technological, digital-interactive) supplies the infrastructure through which the first two models are delivered: digital ecosystem simulations, interactive mapping of local environmental data, and collaborative platforms for project-based ecological investigation, consistent with the anticipation-action-reflection cycle emphasized in the OECD framework [6].

4. Interdisciplinary Integration and the Aral Sea Case

The O‘UM-EKO model is illustrated through the Aral Sea crisis as a unifying thematic thread across subjects within a single academic term: biology examines the collapse of aquatic biodiversity and adaptive strategies of surviving species; geography covers the hydrological history of the Amu Darya and Syr Darya basins; chemistry addresses the composition and health effects of wind-borne salt and dust; mathematics and informatics involve elementary statistical analysis and visualization of water-level and salinity data. Students are also guided to connect these ecological findings to social consequences — population displacement, altered livelihoods, and public health effects — so that the ecological and social dimensions of the crisis are examined jointly rather

than separately, in the spirit of the balance Raworth describes between an ecological ceiling and a social foundation [4].

5. Discussion: Implications for General Secondary Education

This system carries three practical implications. First, ecological responsibility is best cultivated through the systematic redesign of core biology lessons rather than through supplementary environmental modules, in line with UNESCO's call for structural reorientation [2]. Second, teacher preparation must extend beyond biology subject-matter expertise to include sufficient familiarity with adjacent disciplines, mirroring GreenComp's emphasis on educators' own sustainability competence [5]. Third, the RIETM component requires investment in low-cost, locally adaptable digital resources, particularly in regions of Uzbekistan where technological infrastructure remains uneven; without such investment, the model risks reproducing existing inequalities in access to sustainability education.

Taken together with the author's earlier findings on climate-integrated biology teaching [7], the model offers a template for aligning national curricular reform with Sustainable Development Goal 4.7 while preserving the specific requirements of Uzbekistan's biology teaching methodology and the specialty code under which the underlying doctoral research is registered.

6. Conclusion

This article has presented a hierarchically structured pedagogical system — METI, O‘UM-EKO, and RIETM — for cultivating ecological responsibility and sustainable lifestyle competencies among secondary school students through biology teaching. Building on the conceptual legacy of the Brundtland Report [1], the analytical framework of Sachs [3], the ecological-social balance of Raworth [4], the competence architectures of UNESCO [2], GreenComp [5], and the OECD Learning Compass 2030

[6], and on the author's own earlier study of climate-integrated biology teaching [7], the proposed system offers a globally informed yet locally grounded approach. Future empirical work should test the model's effectiveness through pedagogical experimentation across a representative sample of general secondary schools.

REFERENCES

1. Brundtland G.H. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. — Oxford: Oxford University Press, 1987. — 383 p.

2. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. — Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2020. — 66 p. [Elektron resurs]. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802

3. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. — New York: Columbia University Press, 2015. — 543 p.

4. Raworth K. Doughnut Economics: Seven Ways to Think Like a 21st-Century Economist. — London: Random House Business Books, 2017. — 384 p.

5. Bianchi G., Pisiotis U., Cabrera Giraldez M. GreenComp — The European Sustainability Competence Framework / Ed. by Y. Punie, M. Bacigalupo. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. — EUR 30955 EN. — DOI: 10.2760/13286.

6. OECD. OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030 — A Series of Concept Notes. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 127 p.

7. Abduraxmanova I.Y. Iqlim o‘zgarishi ta’limini biologiya faniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish // «Avangard pedagogika: yoshlar tarbiyasi va ijtimoiylashuvining innovatsion modellari» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — 2026. — 10 aprel. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19492864.

MAKTAB TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Qayimova Maftuna Tursunovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi hamda

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy maktab ta’lim muhitida o‘quvchilarning emotsional intellektini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida „sinf rahbari – o‘quvchi – ota-ona” uchburchak hamkorlik modeli hamda darsdan tashqari faoliyatning o‘quvchilar ijtimoiy kompetensiyasini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot yakunida maktab amaliyotida o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini boshqarish va mustahkam ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещаются научно-методические основы формирования эмоционального интеллекта учащихся в условиях современной школьной образовательной среды. В работе проанализированы особенности поведения подростков, их место в группе сверстников и факторы, влияющие на их эмоциональное благополучие. Также показана модель трехстороннего взаимодействия «классный руководитель – ученик – родитель» и роль внеклассной деятельности в повышении социальной компетентности учащихся. В заключении исследования разработаны методические рекомендации для школьной практики по развитию у детей навыков управления эмоциями и построения прочных социальных отношений.*

Abstract. *This article highlights the scientific and methodological foundations of developing students' emotional intelligence in the modern school educational environment. The paper analyzes the behavior of adolescents, their role in the peer group, and factors influencing their emotional well-being. Furthermore, it demonstrates the "class teacher – student – parent" triangular cooperation model and the role of extracurricular activities in enhancing students' social competence. At the end of the study, methodological recommendations are developed for school practice to improve students' emotional regulation and relationship-building skills with peers and adults.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, maktab muhiti, o‘smir, tengdoshlar guruhi, o’smir, sinf rahbari, ota-ona bilan hamkorlik, darsdan tashqari faoliyat.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, школьная среда, подросток, группа сверстников, классный руководитель, взаимодействие с родителями, внеучебная деятельность.*

Keywords: *emotional intelligence, school environment, adolescent, peer group, class teacher, parent cooperation, extracurricular activities.*

Kirish. Emotsional intellekt XXI asr insoni uchun eng muhim ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda erta yoshdan emotsional intellektni rivojlantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Emotsional intellekti yuqori darajada rivojlangan bolalar kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatliroq bo‘ladi, jamiyatga osonroq moslashadi, ko‘proq talabgir bo‘ladi, yangiliklarga tayyor, tashabbuskor bo‘ladi, kengroq muloqot doirasiga ega bo‘ladi hamda hayotidan ko‘proq qoniqish hosil qiladi.

Asosiy umumiy ta’limning davlat ta’lim standartida (FGOS OOO) qayd etilishicha, asosiy maktabni tugatish vaqtiga kelib, o‘quvchilarda emotsional intellektni shakllantirish doirasida quyidagi qobiliyatlar rivojlangan bo‘lishi kerak:

— o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini farqlash, nomlash va boshqarish;
— hissiyotlarning sabablarini aniqlash hamda tahlil qilish;

— o‘zini boshqa inson o‘rniga qo‘ya olish, uning motivlari va niyatlarini tushunish;

— hissiyotlarni ifodalash usullarini boshqara olish.[1]

Shu bilan birga, asosiy umumiy ta’limning har bir faniga oid namunaviy ishchi dasturlarda “Metapredmet natijalar” bo‘limida emotsional intellektni rivojlantirish vazifalari har bir fanning imkoniyatlarini hisobga olgan holda yanada aniqroq va batafsil yoritib berilgan[2].

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda asosiy maktab o‘quvchilarida emotsional intellektni shakllantirish bo‘yicha pedagoglarning maqsadli va tizimli ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki umumiy ta’lim sifatining oshishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunki emotsional intellekt maktab o‘quvchilarining psixologik farovonligi uchun mustahkam asos yaratadi, bulling, deviant xulq-atvor, tajovuzkorlik, agressiv xatti-harakatlar, nizolashuv, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik kabi salbiy holatlarning oldini olishga yordam beradi.[3]

Emotsional intellektning yuqori darajada shakllanganligi o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida, shuningdek o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Bu esa jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallashga, o‘z fikr va g‘oyalarini erkin bayon qilishga, tushunilmaslikdan qo‘rqmaslikka yordam beradi. Emotsional intellektni rivojlantirish XXI asr insoni

[1] Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего образования (Приказ от 31 мая 2021 г. N 287), ст. 43.
[2] Для справки: Рабочие программы по всем предметам основного общего образования размещены на портале
[3] НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ (ОСНОВНАЯ ШКОЛА) И. В. Ускова, И. Ю. Шустова ст. 5.

Проведенный теоретический анализ позволяет заключить, что интернет-контент оказывает существенное влияние на формирование поведенческих установок подростков, выступая важным фактором их социализации [4, с. 356]. Социальные сети становятся средой, где происходит не только коммуникация, но и конструирование идентичности, трансляция ценностных ориентаций и выработка поведенческих паттернов.

Ключевыми детерминантами деструктивного поведения подростков в интернет-пространстве являются их социально-психологические установки, мотивационная направленность и степень психологической зрелости. Особую роль играют установки на власть и свободу, а также недоброжелательное

отношение к окружающим, которые могут провоцировать использование деструктивных моделей поведения в виртуальном пространстве [1, с. 68]. Кроме того, ценностные ориентации на высокий социальный статус и управление людьми также коррелируют со склонностью к асоциальному поведению в интернет-среде [3].

Результаты исследований указывают на необходимость системного психологического сопровождения подростков в процессе их интернет-социализации. Важным направлением такой работы является формирование критического мышления, развитие навыков безопасного поведения в сети, а также коррекция деструктивных социально-психологических установок. Как отмечают В.С. Одинцова и К.Г. Твердоступ, необходима профилактическая работа с подростками, которые могут являться целевой аудиторией и объектами информационно-психологических угроз, целью которых является оказание деструктивного воздействия на аудиторию [5].

Список литературы

1. Зекерьяев Р.И. Взаимосвязь уровня асоциального поведения в интернет-пространстве и особенностей социально-психологических установок подростков // Психология человека в образовании. — 2023. — Т. 5, № 1. — С. 62–72.

2. Зекерьяев Р.И. Психологические особенности ценностных ориентаций личности, склонной к асоциальному поведению в интернет-пространстве // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Психологические науки. — 2022. — № 4. — С. 7–17.

3. Козлова А.Б., Шульга Т.И., Дворянчикова К.Н., Гурина О.Д. Социально-психологические особенности поведения взрослых в ситуации киберагрессии // Психология и право. — 2026. — Т. 16, № 1. — С. 17–32.

4. Мельникова Е.А., Ошивалов А.А. Особенности социализации молодёжи в условиях современной интернет коммуникации // Культура и экология – основы устойчивого развития России. Сохранение традиционных духовно-нравственных ценностей как приоритетная цель государственной политики РФ: материалы Международного форума (Екатеринбург, 12–15 апреля 2024 г.). — Екатеринбург: ФГАОУ ВО УрФУ, 2024. — С. 354–360.

5. Одинцова В.С., Твердоступ К.Г. Влияние цифровых средств массовой коммуникации на подростков как психологическая проблема // Психология и педагогика. — 2025. — № 2. — С. 45–58.

6. Хриптович В.А. Интернет-социализация подростков в контексте девиантности // Цифровая гуманитаристика и технологии в образовании (DHTE 2021): сб. статей II-й Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. 11–12 ноября 2021 г. / Под ред. В.В. Рубцова, М.Г. Сороковой, Н.П. Радчиковой. — М.: Издательство ФГБОУ ВО МГППУ, 2021. — С. 534–545.

GLOBAL HEALTHCARE: PERSPECTIVES OF MODERN MEDICINE AND PHARMACY

BOLALARDA DOIMIY CHAYNOV TISHLARI YO‘QOTILGACH QO‘LLANILADIGAN PROFILAKTIK PROTEZLARNI TAKOMILLASHTIRISH

To‘ychiyev Rashidbek Valijon O‘g‘li

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya. *Bolalarda doimiy chaynov tishlarining erta yo‘qotilishi tish qatori yaxlitligi, chaynash samaradorligi va rivojlanayotgan okklyuziyaning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Muammoning klinik murakkabligi shundaki, ayrim holatlarda ikkinchi doimiy molyarning mezial siljishi hisobiga bo‘shliq tabiiy yopilishi mumkin, boshqa holatlarda esa nazoratsiz siljish, antagonist tishning supraerupsiyasi, o‘rta chiziq og‘ishi va keyinchalik murakkab ortodontik davolash zarurati yuzaga keladi. Ushbu narrativ ilmiy sharhning maqsadi doimiy chaynov tishi yo‘qotilgan bolalarda qo‘llaniladigan profilaktik protezlarning biologik, funksional va texnologik mezonlarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan differensial klinik protokolni asoslashdan iborat. Taklif etilgan konsepsiya protezni passiv bo‘shliq saqlagichdan individual, funksional va muntazam yangilanadigan davolash tizimiga aylantirishni nazarda tutadi. Tizim raqamli diagnostika, yengil okklyuzion kontaktli anatomik pontik, gigiyenik tayanch zonalari, almashtiriladigan yoki qayta loyihalanadigan modul va uch oylik klinik monitoringni birlashtiradi. Mavjud dalillar raqamli CAD/CAM va additiv ishlab chiqarish aniqlik hamda qabul qilinishni yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatsa-da, doimiy molyar yo‘qotilgan bolalardagi uzoq muddatli samaradorlikni tasdiqlash uchun yaxshi rejalashtirilgan prospektiv tadqiqotlar zarur.*

Kalit so‘zlar: *bolalar stomatologiyasi; doimiy birinchi molyar; profilaktik protez; funksional bo‘shliq saqlagich; okklyuziya; CAD/CAM; 3D-bosma; raqamli monitoring*

Abstract. *Early loss of permanent posterior teeth in children may compromise arch integrity, masticatory function, vertical stability, and the developing occlusion. This narrative review analyzes current evidence and proposes a differentiated protocol for improving preventive prostheses after permanent molar loss. The central principle is to determine first whether the extraction space should be allowed to close spontaneously, maintained, functionally restored, or prepared for orthodontic closure. The proposed appliance concept combines digital diagnosis, a hygienic anatomical pontic with light occlusal contacts, modular components that can be redesigned during growth, and three-month clinical monitoring. Although CAD/CAM and additive manufacturing may improve precision and clinical efficiency, direct long-term evidence in children missing permanent molars remains limited; prospective controlled studies are needed.*

Keywords: *pediatric dentistry; permanent first molar; preventive prosthesis; functional space maintainer; CAD/CAM; 3D printing.*

Kirish

Doimiy birinchi molyarlar odatda 6–7 yoshda, ya’ni bola aralash tishlov davriga kirgan paytda yorib chiqadi. Ular sut tishlarini almashtirmagani sababli ota-onalar tomonidan ko‘pincha “vaqtinchalik tish” deb noto‘g‘ri baholanadi. Fissuralarning chuqurligi, og‘iz bo‘shlig‘ining distal qismida joylashishi, gigiyena ko‘nikmalarining hali to‘liq shakllanmagani, yuqori kariyes xavfi hamda molyar–kesuvchi gipomineralizatsiyasi ushbu tishlarning erta zararlanishiga olib kelishi mumkin. Birinchi doimiy molyar chaynash yukini taqsimlash, vertikal tishlov balandligini ushlab turish va doimiy okklyuziya shakllanishida tayanch nuqta vazifasini bajaradi [1, 2].

Doimiy chaynov tishi yo‘qotilgach yuzaga keladigan bo‘shliq statik emas. Qo‘shni tishlar bo‘shliq tomon egilishi yoki korpus bo‘ylab siljishi, antagonist tish esa okklyuzion tayanch yo‘qolgani sababli supraerupsiya qilishi mumkin. Natijada tish qatori perimetri o‘zgaradi, kontakt nuqtalari buziladi, oziq tutilishi va kariyes xavfi

ortadi. Bir tomonlama yo‘qotish pastki jag‘ o‘rta chizig‘ining og‘ishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Biroq bo‘shliqni har qanday sharoitda saqlash ham to‘g‘ri yondashuv emas: rivojlanayotgan ikkinchi doimiy molyar maqbul vaqtda mezial yo‘nalishda yorib chiqib, birinchi molyar o‘rnini egallashi mumkin [2, 3]. Demak, profilaktik protezlashdan oldingi asosiy savol “qaysi konstruksiyani tanlash?” emas, balki “bo‘shliq saqlanishi, funksional to‘ldirilishi yoki ortodontik yopilishiga yo‘l qo‘yilishi kerakmi?” degan savoldir.

Amaldagi metall halqa–ilmoq, lingval yoy, Nance apparati, olinadigan plastinkali protez va adgeziv tolali konstruksiyalar turli klinik vaziyatlarda qo‘llanadi. Ularning ko‘pi bo‘shliqning mezial-distal o‘lchamini saqlaydi, ammo yo‘qotilgan okklyuzion yuzani tiklamaydi. Shuning uchun doimiy chaynov tishining yo‘qolishida “profilaktik protez” tushunchasi kengroq talqin qilinishi: bo‘shliqni nazorat qilish bilan birga chaynash, antagonistning vertikal holati, gigiyena va jag‘ o‘sishini muvofiqlashtirishi kerak.

Tadqiqot maqsadi

Bolalarda doimiy chaynov tishlari yo‘qotilgandan keyin qo‘llaniladigan profilaktik protezlarning mavjud klinik va texnologik yechimlarini tahlil qilish, ularning cheklovlarini aniqlash hamda dental yoshga mos, funksional, gigiyenik va raqamli monitoringga asoslangan takomillashtirilgan protokolni taklif etish.

Materiallar va usullar

Ish narrativ ilmiy sharh va klinik-konseptual tahlil shaklida bajarildi. Pediatrik stomatologiya hamda ortodontiyaga oid xalqaro tavsiyalar, PubMed bazasida indekslangan sistematik sharhlar, meta-tahlillar, klinik tadqiqotlar va CAD/CAM bo‘shliq saqlagichlariga doir ishlar ko‘rib chiqildi. Asosiy tahlil mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: tish yo‘qotilgan paytdagi dental yosh; ikkinchi va uchinchi molyarlarning mavjudligi hamda rivojlanish bosqichi; bo‘shliqning o‘z-o‘zidan yopilish ehtimoli; konstruksiyaning retensiyasi va xizmat muddati; chaynash

funksiyasini tiklash qobiliyati; gigiyenik xavfsizlik; bolaning hamkorligi; ishlab chiqarish aniqligi va qayta moslashtirish imkoniyati. Ushbu maqolada yangi bemorlar guruhi tekshirilmaganligi sababli klinik samaradorlikka oid mualliflik statistikasi keltirilmaydi; taklif qilingan yechim mavjud dalillarni integratsiya qiluvchi konseptual protokoldir.

Natijalar va muhokama

1. Doimiy molyar yo‘qotilganda bo‘shliq taqdirini prognozlash

Birinchi doimiy molyar olib tashlangandan keyingi tabiiy o‘zgarishlar jag‘lar bo‘yicha bir xil emas. 2024-yilda e’lon qilingan sistematik sharh va meta-tahlilda 15 tadqiqot, 1159 bemor va 2310 kvadrant ma’lumotlari umumlashtirilgan; spontan bo‘shliq yopilishi yuqori jag‘da 85,3 foiz, pastki jag‘da esa 48,1 foiz kuzatilgan [3]. Dalillarning ishonchliligi metodologik cheklovlar sabab past deb baholangan bo‘lsa-da, bu farq klinik qarorni individual qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ikkinchi molyar Demirjian bo‘yicha E bosqichida bo‘lishi, pastki uchinchi molyar kurtagining mavjudligi, yoshroq dental bosqich va ayrim hollarda tish qatoridagi zichlik spontan yopilish ehtimolini oshiradi [3, 4].

Yuqori jag‘da ikkinchi molyar ko‘pincha nisbatan to‘g‘ri meziallashadi; pastki jag‘da esa tishning mezial qiyshayishi, distal qismda suyak defekti yoki rezidual bo‘shliq qolishi ehtimoli yuqoriroq. Ikkinchi molyar allaqachon okklyuziyaga kirgan bo‘lsa, u birinchi molyar joyiga o‘z-o‘zidan korpus bo‘ylab ko‘chmaydi; bunday vaziyatda bo‘shliqni yopish faol ortodontik mexanika talab qiladi [2]. Shuning uchun faqat bolaning pasport yoshiga tayanish yetarli emas. Panoramik rentgenogrammada ildiz bifurkatsiyasi, ikkinchi molyar angulyatsiyasi, uchinchi molyar kurtagi, premolyarlar rivojlanishi va alveolyar suyak holati baholanishi kerak. Rentgen tekshiruvlari klinik zarurat va radiatsion xavfsizlik tamoyiliga muvofiq buyuriladi; takroriy monitoringda invaziv bo‘lmagan intraoral skan va fotoprotokolga ustunlik beriladi.

2. An’anaviy profilaktik konstruksiyalarning imkoniyatlari va cheklovlari

Olinadigan qisman plastinkali protez ko‘p tish yo‘qotilganda chaynash yuzasini va estetika elementlarini tiklashi, vertikal tayanch yaratishi hamda o‘sishga mos ravishda qayta bazislanishi mumkin. Biroq uning samarasi bolaning apparatni taqish intizomiga bog‘liq; protezning yo‘qolishi, sinishi, shilliq qavatni shikastlashi va plastinka ostida blyashka to‘planishi mumkin. Kichik yoshdagi yoki hamkorligi past bemorda olinadigan konstruksiya faqat ota-ona nazorati yetarli bo‘lsa tanlanadi.

Qo‘zg‘almas passiv saqlagichlar bemor intizomiga kamroq bog‘liq va bo‘shliq o‘lchamini yaxshi nazorat qiladi. Shunga qaramay, ular odatda okklyuzion yuzani tiklamaydi va antagonist supraerupsiyasiga qarshi yetarli vertikal to‘siq bermaydi. Sementning erishi, dekementatsiya, payvand joyining sinishi, tayanch tishda kariyes va shilliq qavatga bosim asosiy nosozliklardir. AAPD bo‘shliq saqlagichlar bilan bog‘liq asoratlar qatorida apparatning yo‘qolishi yoki sinishi, blyashka va kariyes, tish yorib chiqishiga xalaqit, nomaqbul siljish, yumshoq to‘qima shikasti va og‘riqni qayd etadi [1]. Sistematik dalillarda turli fiksatsiyalangan konstruksiyalarning 6–18 oylik kuzatuvdagi xizmat ko‘rsatkichlari juda keng — 20 foizdan 86,3 foizgacha — o‘zgaradi; biror turini mutlaq ustun deb tavsiya qilish uchun dalillar yetarli emas [6].

Shisha yoki polietilen tolasi bilan mustahkamlangan kompozit adgeziv konstruksiyalar metallga ehtiyojni kamaytiradi, bir tashrifda tayyorlanishi va tayanch tish to‘qimalarini minimal charxlash bilan saqlashi mumkin. Biroq namlikni izolyatsiya qilish qiyin bo‘lsa, bog‘lanish uzilishi yoki tolali element sinishi kuzatiladi. Bondlangan bo‘shliq saqlagichlar bo‘yicha sistematik sharh o‘rtacha xizmat muddatini taxminan 11,2 oy deb ko‘rsatgan [7]. Shu sababli adgeziv konstruksiya “o‘rnatildi va unutildi” usuli emas, balki muntazam tekshiruv va ta’mirni talab qiladigan vaqtinchalik yechimdir.

3. Funksional va raqamli profilaktik protezlashni takomillashtirish

Takomillashtirilgan protezning birinchi mezoni — funksionallik. Pontik yoki sun’iy chaynash qismi bo‘shliqning mezial-distal o‘lchamini saqlash bilan birga antagonist uchun nazoratli vertikal tayanch yaratishi kerak. Okklyuzion kontaktlar haddan tashqari baland bo‘lmasligi, markaziy kontaktlar yengil va barqaror bo‘lishi, lateral harakatlarda travmatik interferensiya yuzaga keltirmasligi lozim. Pontik shilliq qavatga bosim bermaydigan, tagi yuviladigan va bolaning tish cho‘tkasi yoki oral irrigatsiya vositasi bilan tozalashi mumkin bo‘lgan gigiyenik shaklda loyihalanadi. 2025-yilgi randomizatsiyalangan klinik tadqiqotda CAD/CAM yordamida tayyorlangan funksional saqlagichlar o‘rnatilgach chaynash samaradorligi yaxshilangani, 3D-bosma metall varianti olti oylik kuzatuvda frezerlangan kompozit variantga qaraganda yaxshiroq klinik natija ko‘rsatgani qayd etilgan [12]. Tadqiqot sut birinchi molyarlari yo‘qotilgan bolalarda o‘tkazilganini hisobga olib, natijalarni doimiy molyar nuqsoniga bevosita ko‘chirish ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Ikkinchi mezon — individual raqamli dizayn. Intraoral skan an’anaviy qolip olishdagi qusish refleksi va noqulaylikni kamaytiradi, tish qatori holatini takrorlanuvchi uch o‘lchamli ma’lumot sifatida saqlaydi. CAD modelida tayanch yuzalar, gigiyenik bo‘shliq, pontikning okklyuzion anatomiyasi va kelajakdagi tish yorib chiqishi uchun “xavfsiz zona” aniq belgilanadi. PEEK yoki PEKK kabi yuqori samarali polimerlar yengil va metall rangsiz bo‘lishi mumkin; kobalt-xrom yoki titan asosidagi additiv konstruksiyalar esa yupqa kesimda yuqori mustahkamlik beradi. Material tanlovi allergologik anamnez, apparat qalinligi, laboratoriya validatsiyasi, sirtni jilolash va iqtisodiy imkoniyat bilan belgilanadi. Raqamli usulning nazariy afzalliklari aniqlik, qisqa klinik vaqt va dizaynni qayta ishlab chiqarish imkoniyatidir [9–11]; ammo material biouyg‘unligi va uzoq muddatli klinik xavfsizlik ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalari hamda sertifikatlangan ish oqimi bilan ta’minlanishi shart.

Uchinchi mezon — modullilik va o‘sishga moslashuv. Jag‘ o‘sayotgan davrda uzoq muddat o‘zgarmaydigan qattiq konstruksiya biologik jihatdan maqsadga muvofiq

emas. Taklif etilayotgan modelda retensiya qismi va funksional pontik alohida modullar sifatida loyihalanadi: pontik okklyuzion yeyilish yoki tishlar siljishiga qarab almashtiriladi, retensiya elementi esa zaruratda qayta skan asosida yangilanadi. Ikkinchi molyar yorib chiqish yo‘liga yaqinlashganda apparatda erupsion “oyna” kengaytiriladi yoki konstruksiya olib tashlanadi. Bu yondashuv apparatning tish yorib chiqishiga mexanik to‘sqinlik qilish xavfini kamaytiradi.

To‘rtinchi mezon — faol profilaktika. Tayanch tishlarda kariyes xavfi baholanadi, fissuralar germetizatsiyasi ko‘rib chiqiladi, ftorli tish pastasi bo‘yicha yoshga mos ko‘rsatma beriladi va sement chetlari har tashrifda tekshiriladi. Apparat dizayni gingival chetdan xavfsiz masofada, silliq va blyashka tutilishini kamaytiradigan qilib tayyorlanishi kerak. Raqamli texnologiya yomon gigiyenani bartaraf etmaydi; aksincha, murakkab dizayn noto‘g‘ri parvarishda qo‘shimcha retensiya zonalarini yaratishi mumkin.

Klinik qarorni differensiallashtirish matritsasi

1-jadval. *Doimiy chaynov tishi yo‘qotilganda davolash maqsadi va vaqtinchalik konstruksiyani moslashtirish*

Klinik vaziyat	**Asosiy maqsad**	**Maqbul vaqtinchalik yechim**	**Nazorat mezoni**
Ikkinchi molyar yorib chiqmagan, spontan yopilish prognozi yaxshi	Bo‘shliqni majburan saqlamasdan yo‘naltirilgan erupsiyani kuzatish	Protez qo‘ymaslik yoki qisqa muddatli selektiv apparat; ortodont nazorati	Ikkinchi molyar angulyatsiyasi, bo‘shliq dinamikasi, o‘rta chiziq

Klinik vaziyat	Asosiy maqsad	Maqbul vaqtinchalik yechim	Nazorat mezoni
Pastki jag‘da yopilish prognozi noaniq yoki ikkinchi molyar kech bosqichda	Bo‘shliq va tayanch tishlar holatini saqlash	Qo‘zg‘almas individual saqlagich; zaruratda funksional pontik	Mezial qiyshayish, sement, gigiyena, okklyuzion kontakt
Antagonist supraerupsiyasi xavfi yoki chaynash yetishmovchiligi	Vertikal tayanch va chaynash yuzasini tiklash	Yengil kontaktli funksional CAD/CAM protez	Kontakt balandligi, shilliq qavat, chaynash qulayligi
Bir nechta chaynov tishlari yo‘qotilgan	Tish qatori perimetri va funksiyani kompleks tiklash	Olinadigan qisman bolalar protezi yoki kombinatsiyalangan apparat	Taqish intizomi, bazis mosligi, jag‘ o‘sishi
O‘sish yakunlanmagan, kelajakda implant rejalashtirilgan	Alveolyar hajm va protez bo‘shlig‘ini saqlash	Qayta moslashtiriladigan vaqtinchalik protez	Skelet yetilishi, suyak konturi, bo‘shliq kengligi

Izoh: matritsa klinik qarorni almashtirmaydi; har bir holatda pediatr-stomatolog va ortodontning birgalikdagi bahosi talab etiladi.

4. Taklif etilayotgan klinik protokol

Birinchi tashrifda anamnez, kariyes faolligi, periodontal holat, yo‘qotilgan tish soni, nuqson davomiyligi, yuz va tish qatori simmetriyasi, Angle sinfi, overjet va overbite baholanadi. Diagnostik modellar yoki intraoral skanlar olinadi. Zarurat bo‘lsa, panoramik rentgenogrammada ikkinchi molyar rivojlanishi va angulyatsiyasi, uchinchi molyar kurtagi, premolyarlar hamda alveolyar suyak tekshiriladi. Doimiy birinchi molyarni rejalashtirilgan olib tashlash masalasi pediatr-stomatolog va ortodont ishtirokida hal qilinishi eng maqbul yondashuv hisoblanadi [2].

Ikkinchi bosqichda nuqson uch yo‘ldan biriga ajratiladi: spontan yopilishni kuzatish; bo‘shliqni saqlash va funksional tiklash; yoki ortodontik yopish uchun vaqtinchalik nazorat. Qaror bolaning dental yoshi, jag‘ turi, tishlar zichligi, ikkinchi molyar pozitsiyasi, uchinchi molyar mavjudligi, qolgan tishlarning prognozi va oilaning davolanish imkoniyatiga asoslanadi. Faqat nuqson o‘lchami bo‘yicha apparat tanlash yetarli emas.

Uchinchi bosqichda raqamli yoki an’anaviy model asosida konstruksiya loyihalanadi. Retensiya yetarli, lekin gigiyenaga xalaqit bermaydigan bo‘lishi; pontik alveolyar qirrani bosmasligi; okklyuzion kontakt artikulyatsion qog‘oz bilan tekshirilishi; tish yorib chiqish yo‘li ochiq qolishi kerak. Tayanch tish kariyes xavfi yuqori bo‘lsa, apparat o‘rnatilishidan oldin profilaktik-restavratsion tayyorgarlik o‘tkaziladi.

To‘rtinchi bosqich — dinamik monitoring. Apparat o‘rnatilgandan 7–14 kun o‘tib moslashuv, og‘riq, yumshoq to‘qima va okklyuziya tekshiriladi. Keyingi nazorat odatda har uch oyda, yuqori kariyes xavfi yoki faol erupsiya davrida esa tez-tez o‘tkaziladi. Har tashrifda retensiya, sement cheti yoki adgeziv birikma, pontik osti gigiyenasi, antagonist holati, bo‘shliq kengligi va ikkinchi molyar erupsiyasi qayd qilinadi. Intraoral skanlarni ustma-ust solishtirish millimetrik siljishlarni ko‘rishga yordam berishi mumkin. Apparat maqsadiga erishgach yoki erupsiyaga to‘sqinlik xavfi tug‘ilgach darhol olib tashlanadi yoki qayta loyihalanadi.

5. Takomillashtirilgan yondashuvning kutiladigan afzalliklari va cheklovlari

Taklif qilingan yondashuvning asosiy afzalligi — davolashni apparat turidan emas, biologik prognozdan boshlashidir. Funksional pontik chaynash yuzasini va antagonist uchun vertikal tayanchni tiklaydi; raqamli dizayn esa anatomik moslik, qayta ishlab chiqarish va kuzatuv ma’lumotlarini saqlash imkonini beradi. Modulli konstruksiya o‘sish davomida butun apparatni emas, faqat zarur qismini yangilashga sharoit yaratadi. Uch oylik nazorat mexanik nosozlik, kariyes va erupsiya to‘sig‘ini erta aniqlashga xizmat qiladi.

Biroq yuqori texnologik apparat avtomatik ravishda yaxshi klinik natija bermaydi. Intraoral skaner va CAD dasturi xarajati, o‘qitilgan mutaxassis, sertifikatlangan material, laboratoriya sifati va ta’mirlash logistikasi muhim cheklovlardir. Additiv metall konstruksiyada sirtni yetarli jilolamaslik blyashka retensiyasini oshirishi, polimer konstruksiyada esa yupqa kesim sinishga moyil bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, raqamli funksional saqlagichlarning ko‘p dalillari sut tishlari erta yo‘qotilgan kichik namunalarga taalluqli. Shuning uchun doimiy molyar nuqsonidagi samaradorlikni baholash uchun kamida 12–24 oylik prospektiv, ko‘p markazli tadqiqotlar zarur. Bunday tadqiqotlarda faqat apparat “saqlanib qolishi” emas, balki bo‘shliqning uch o‘lchamli o‘zgarishi, chaynash samaradorligi, antagonist supraerupsiyasi, tayanch tish kariyesi, periodontal ko‘rsatkichlar, bemor qoniqishi va keyingi ortodontik davolash hajmi ham yakuniy natija sifatida o‘lchanishi kerak.

Xulosa

Bolalarda doimiy chaynov tishi yo‘qotilgandan keyingi profilaktik protezlash individual biologik prognozga asoslanishi kerak. Birinchi doimiy molyar nuqsonida yuqori va pastki jag‘ uchun spontan bo‘shliq yopilishi ehtimoli sezilarli farq qiladi; shu bois dental yosh, ikkinchi molyar rivojlanish bosqichi va angulyatsiyasi, uchinchi molyar kurtagi, tish qatori zichligi hamda umumiy okklyuziya birgalikda baholanadi.

Profilaktik protezni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi passiv bo‘shliq saqlashdan funksional, gigiyenik va o‘sishga mos boshqaruvga o‘tishdir. Yengil okklyuzion kontaktli anatomik pontik antagonist supraerupsiyasini cheklash va chaynashni yaxshilashga xizmat qiladi; raqamli skan, CAD/CAM va 3D-bosma texnologiyalari individual moslik hamda qayta ishlab chiqarishni osonlashtiradi. Biroq har qanday material va dizayn tayanch tishlar kariyesi, blyashka, shilliq qavat shikasti va erupsiyaga xalaqit xavfi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

Eng maqbul amaliy model — pediatr-stomatolog va ortodont hamkorligida tuzilgan reja, funksional-modulli vaqtinchalik protez va kamida har uch oyda klinik nazoratni birlashtiradigan tizimdir. Ushbu konsepsiya doimiy protez yoki implantga shoshilmasdan, o‘sish tugaguniga qadar tish qatori, alveolyar sharoit va chaynash funksiyasini boshqarishga imkon beradi. Taklif etilgan protokol klinik jihatdan mantiqiy va mavjud dalillar bilan mos bo‘lsa-da, uning doimiy molyar yo‘qotilgan bolalardagi ustunligini tasdiqlash uchun standartlashtirilgan uzoq muddatli tadqiqotlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. American Academy of Pediatric Dentistry. Management of the developing dentition and occlusion in pediatric dentistry. The Reference Manual of Pediatric Dentistry. Chicago, IL: AAPD; 2025:497–515. https://www.aapd.org/globalassets/media/policies_guidelines/bp_developdentition.pdf

2. Noar J, Taylor G, Ashley P, Williams A, Harrison M, Cobourne MT. A Guideline for the Extraction of First Permanent Molars in Children. London: The Royal College of Surgeons of England; 2023. https://www.rcseng.ac.uk/-/media/fds/guidance-for-the-extraction-of-first-permanent-molars-in-children.pdf

3. Hamza B, Papageorgiou SN, Patcas R, Schätzle M. Spontaneous space closure after extraction of permanent first molars in children and adolescents: a systematic review and meta-analysis. Eur J Orthod. 2024;46(6):cjae054. doi:10.1093/ejo/cjae054.

4. Patel S, Ashley P, Noar J. Radiographic prognostic factors determining spontaneous space closure after loss of the permanent first molar. Am J Orthod Dentofacial Orthop. 2017;151(4):718–726. doi:10.1016/j.ajodo.2016.09.018.

5. Khalaf K, Mustafa A, Wazzan M, Omar M, Estaitia M, El-Kishawi M. Clinical effectiveness of space maintainers and space regainers in the mixed dentition: a systematic review. Saudi Dent J. 2022;34(2):75–86. doi:10.1016/j.sdentj.2021.09.002.

6. Casaña-Ruiz MD, Aura-Tormos JI, Marques-Martinez L, et al. Effectiveness of space maintainers in pediatric patients: a systematic review and meta-analysis. Dent J. 2025;13(1):32. doi:10.3390/dj13010032.

7. Deshpande SS, Bendgude VD, Kokkali VV. Survival of bonded space maintainers: a systematic review. Int J Clin Pediatr Dent. 2018;11(5):440–445. doi:10.5005/jp-journals-10005-1554.

8. Kamki H, Kalaskar R, Balasubramanian S, Badhe H, Kalaskar A. Clinical effectiveness of fiber-reinforced composite space maintainer and band and loop space maintainer in a pediatric patient: a systematic review and meta-analysis. Int J Clin Pediatr Dent. 2021;14(Suppl 1):S82–S93. doi:10.5005/jp-journals-10005-2044.

9. Dhanotra KGS, Bhatia R. Digitainers—digital space maintainers: a review. Int J Clin Pediatr Dent. 2021;14(Suppl 1):S69–S75. doi:10.5005/jp-journals-10005-2040.

10. Zarean P, Zarean P, Sendi P, Neuhaus KW. Advances in the manufacturing process of space maintainers in pediatric dentistry: a systematic review from traditional methods to 3D-printing. Appl Sci. 2023;13(12):6998. doi:10.3390/app13126998.

11. Guo H, Wang Y, Zhao Y, et al. Computer-aided design of polyetheretherketone for application to removable pediatric space maintainers. BMC Oral Health. 2020;20:201. doi:10.1186/s12903-020-01184-6.

12. Nedeljkovic A, Milosavljevic M, Mladenovic K, et al. Clinical outcomes of novel CAD/CAM-designed functional space maintainers produced via additive and

subtractive methods: a randomized controlled trial. J Dent. 2025;155:105608. doi:10.1016/j.jdent.2025.105608.

TAJRIBA GURUHIDAGI 1 VA 3 OYLIK OQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR OSHQOZON-ICHAK TRAKTINING 70% LI SIRKA KISLOTASI TA`SIRIDA KUYISHIDAN KEYIN YO`G`ON ICHAK DEVORIDAGI TO‘QIMALARIDA KI-67 VA CK-19 MARKERINING EKSPRESSIYALANISHI

Boboyev Shuhrat Raximovich

https://orcid.org/0009-0003-9161-4576,

boboyevshuxrat1987@gmail.com

Xasanova Dilnoza Axrorovna

E-mail dilnoza_xasanova@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. *Oshqozon-ichak traktining kimyoviy moddalar, xususan, yuqori konsentratsiyali kislotalar bilan shikastlanishi patologik anatomiya va eksperimental tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday jarohatlardan keyin yo‘g‘on ichak shilliq qavatining tiklanish va regeneratsiya xususiyatlarini molekulyar darajada o‘rganish jarohatlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *yo‘g‘on ichak, sirka kislotasi, kimyoviy kuyish, kalamushlar, Ki-67, CK-19, immunogistokimyo, regeneratsiya*

Tadqiqot maqsadi: 70% li sirka kislotasi ta’sirida oshqozon-ichak trakti kimyoviy kuyganda, 1 va 3 oylik oq zotsiz kalamushlar yo‘g‘on ichak devori to‘qimalarida hujayralar proliferatsiyasi (Ki-67) va epitelial differensiallanish (CK-19) markerlarining ekspressiyalanish xususiyatlarini qiyosiy baholash.

Material va usullar: Tadqiqot 1 va 3 oylik oq zotsiz kalamushlarda olib borildi. Tajribadagi hayvonlar modelida 70% li sirka kislotasi yordamida kimyoviy kuyish

chaqirildi. Yo‘g‘on ichak to‘qima namunalari gisto-immunogistokimyoviy usullar yordamida o‘rganildi; unda Ki-67 (proliferatsiya indeksi) va CK-19 (sitokeratin-19) markerlarining ekspressiya darajasi raqamli analiz dasturlari orqali tahlil qilindi.

Natijalar: Kimyoviy jarohatdan so‘ng yo‘g‘on ichak shilliq qavatining proliferativ faolligida (Ki-67) va strukturaviy proteinlar sintezida (CK-19) sezilarli o‘zgarishlar aniqlandi. Yosh xususiyatlariga ko‘ra, 1 oylik kalamushlarda regeneratsiya jarayonlari va Ki-67 musbat hujayralar ko‘rsatkichi 3 oylik hayvonlarga nisbatan yuqoriroq kompensatorlik xarakterini namoyon etdi. CK-19 markerining ekspressiyasi esa shilliq qavat epiteliy mudofaa to‘sig‘ining tiklanish bosqichlariga mos ravishda dinamik o‘zgarib bordi.

Ki-67 markerining ekspressiyasi erta posttravmatik davrda ko‘richak shilliq qavati kriptalarining bazal qismida va regeneratsiyalanayotgan epiteliy hujayralarida aniqlanib, hujayra proliferatsiyasining faollashganligini ko‘rsatdi.

1 oylik kalamushlarda Ki-67 musbat hujayralar sonining nisbatan yuqori bo‘lishi kuzatilib, bu yosh hayvonlarda reparativ jarayonlarning jadal kechishini ifodaladi. 3 oylik kalamushlarda esa Ki-67 ekspressiyasi saqlangan bo‘lsa-da, proliferativ faollik darajasi 1 oylik guruhga nisbatan pastroq bo‘ldi.

CK-19 markerining ekspressiyasi ko‘richak epiteliy qatlamida va bezsimon tuzilmalarda aniqlanib, epitelial differensiyalanish va qayta tiklanish jarayonlarining faollashganligini ko‘rsatdi. 1 oylik kalamushlarda CK-19 ekspressiyasi kuchliroq bo‘lib, epitelial qatlamning tezroq regeneratsiyalanishiga ishora qildi. 3 oylik hayvonlarda esa CK-19 ekspressiyasi o‘rtacha darajada namoyon bo‘lib, regeneratsiya jarayonlarining nisbatan sust kechishini ko‘rsatdi.

Ki-67 eng ko‘p lokalizatsiyasi ya’niy ekspressiyasi yo‘g‘on ichak shilliq qavati va kriptalarni hosil qiluvchi devorlarda (bo‘linish jarayonlari ko‘proq bo‘lgan yo‘g‘on ichak qismlarida) ko‘proq kuzatildi. Bu shikastlangan shilliq qavatni tiklashga urinishni va immun tizimining faollashuvini ko‘rsatdi. Ki-67 ekspressiyasining oshishi epiteliy

va kriptalar devori giperplaziyasi, yallig‘lanish o‘zgarishlari yoki adenomalarning rivojlanishi kabi boshqa morfologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Ki-67 immunogistokimyoviy markerining ekspressiyasi hujayra proliferativ faolligining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, bu hujayra bo‘linishi va to‘qimalarning yangilanish holatini baholash imkonini beradi. Tajriba guruhidagi 3 oylik oq zotsiz kalamushlarning yo‘g‘on ichagi chambar va to‘g‘ri ichak devoridagi to‘qimalarida Ki-67 markerining yuqori darajada ekspressiyalanganligi kuzatilgan.

Ki-67 — hujayralarning proliferatsiya (bo‘linish) darajasini ko‘rsatadigan marker. Yuqori darajada ekspressiya hujayralarning faol ko‘payishi va to‘qimalarning yangilanish jarayonining faolligini bildiradi. Bu holat, tajriba guruhidagi 3 oylik kalamushlarda yo‘g‘on ichak to‘qimalarida hujayra tiklanish va regeneratsiya jarayonlarining kuchayganligini ko‘rsatadi.

Nazorat guruhidagi 1 va 3 oylik oq zotsiz kalamushlarning yo‘g‘on ichak sigmasimon ichak devori to‘qimalarida Ki-67 va CK-19 markerlarining ekspressiyasi fiziologik me’yor darajasida aniqlanib, shilliq qavat epiteliyining normal yangilanish jarayonlarini aks ettirdi. Ki-67 musbat hujayralar asosan kriptalarning bazal qismida kam miqdorda kuzatildi, CK-19 ekspressiyasi esa epitelial qatlam va bezsimon tuzilmalarda bir tekis, sust darajada namoyon bo‘ldi.

Tajriba guruhidagi kalamushlarda oshqozon-ichak traktining 70 % li sirka kislotasi ta’sirida yuzaga kelgan kuyishidan keyin 7-kuni sigmasimon ichak devori to‘qimalarida nazorat guruhiga nisbatan aniq morfofunksional o‘zgarishlar qayd etildi.

Ki-67 markerining ekspressiyasi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgan bo‘lib, bu hujayra proliferatsiyasining faollashganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1 oylik kalamushlarda Ki-67 musbat hujayralar soni keskin ko‘payib, kriptalarning bazal va subbazal zonalarida keng tarqalgan holda aniqlanildi. 3 oylik kalamushlarda ham Ki-67 ekspressiyasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori

bo‘ldi, biroq proliferativ faollik 1 oylik guruhga qaraganda nisbatan pastroq darajada namoyon bo‘ldi.

CK-19 markerining ekspressiyasi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan kuchaygan holda aniqlanib, epitelial regeneratsiya va differensiyalanish jarayonlarining faollashganligini ko‘rsatdi. 1 oylik kalamushlarda CK-19 ekspressiyasi kuchli bo‘lib, epitelial qatlam va bezsimon tuzilmalarning qayta tiklanish jarayoni faol kechayotganligini aks ettirdi. 3 oylik tajriba guruhida esa CK-19 ekspressiyasi nazorat guruhidan yuqori, ammo 1 oylik tajriba guruhiga nisbatan o‘rtacha darajada bo‘ldi.

Shunday qilib, nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, sirka kislotasi bilan chaqirilgan kimyoviy kuyishdan keyingi 7-kunda yo‘g‘on ichakning sigmasimon ichak devori to‘qimalarida Ki-67 va CK-19 markerlarining ekspressiyasi sezilarli darajada oshishi erta davrda reparativ-regenerativ jarayonlarning faollashganligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlar yoshga bog‘liq bo‘lib, 1 oylik kalamushlarda regeneratsiya jarayonlari 3 oyliklarga nisbatan ancha faol kechishi bilan tavsiflanadi.

CK-19 – bu sitokeratinlar guruhiga mansub oraliq filagment oqsili bo‘lib, u ko‘pincha epitelial hujayralarda ifodalanadi. U ayniqsa ichak epiteliysining yangilanishi va regeneratsiyasi jarayonlarida, kichik differensiallangan epitelial hujayralar yoki shtam (ildiz) hujayralar bilan bog‘liq faoliyati bilan ajralib turadi. CK-19 markerining yuqori ifodalanishi quyidagi holatlarni ko‘rsatishi mumkin. Epiteliyal hujayralarining proliferatsiyasi (o‘sishi va ko‘payishi), yallig‘lanish yoki shikastlanishdan so‘ng tiklanish jarayonlari nomoyon bo’ladi, agar bu eksperimentda nazorat guruhi (kontrol kalamushlar) bilan solishtirma o‘rganish bo‘lsa, CK-19 ifodalanishidagi farq tajriba sharoitining to‘qima hujayralariga qanday ta’sir qilganini baholashda muhim ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin.

Bu 3 oylik va 1 oylik kalamushlarning natijalari o‘xshash ko‘rinadi, ya’ni har ikkida ham CK-19 yuqori darajada ifodalangan. 1 oylikda yuqori bo‘lgan CK-19 ifodasi 3 oylik kalamushlarda ham yuqori darajada qolmoqda. Bu epiteliy hujayralarining yoki

boshqa tegishli to‘qimalarning uzoq muddat davomida faol holatda ekanligini ko‘rsatadi. Yo‘g‘on ichak devorining epiteliy hujayralarida CK-19 ni yuqori ifodalanishi, ehtimol, to‘qimalarning barqaror regeneratsiyasi yoki uzoq muddatli adaptiv o‘zgarishlarni bildiradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 70% li sirka kislotasi bilan chaqirilgan kimyoviy kuyishdan keyin yo‘g‘on ichak devoridagi regenerativ va destruktiv jarayonlar hayvonlarning yoshiga bevosita bog‘liq. Ki-67 va CK-19 markerlarining immunogistokimyoviy tahlili shilliq qavat strukturasini tiklashda hujayra proliferatsiyasi va epitelial differensiallanishning o‘zaro muvofiqlikda ishlashini tasdiqlaydi. Bunda 1 oylik kalamushlar to‘qimalarining reparativ (tiklanish) salohiyati yuqoriligi namoyon bo‘ldi, bu esa klinik amaliyotda turli yosh guruhlaridagi kimyoviy jarohatlarni davolash taktikasini ishlab chiqishda muhim fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Boboyev Sh. R., Keldiyorova Z. D.** Sirka kislotasining 70% li konsentratsiyasi ta’sirida yo‘g‘on ichakning morfologik o‘zgarishlarini aniqlash // Yosh olimlar tibbiyot jurnali (Toshkent Tibbiyot akademiyasi). – Toshkent, 2025. – № 15 (09). – B. 93–98.

2. **Boboyev Sh. R., Saidov G. N., Keldiyorova Z. D.** Tajribaviy oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo‘g‘on ichak devoridagi morfologik o‘zgarishlarning qiyosiy tavsifi // Klinik fanlar yilnomasi. – Toshkent, 2025. – 2-jild, № 3/1. – B. 32–37.

3. **Boboyev Sh. R., Keldiyorova Z. D., Xasanova D. A.** 1 va 3 oylik oq zotsiz kalamushlar oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi 70% li konsentratsiyasi ta’sirida kuyishidan keyin yo‘g‘on ichakning ko‘ndalang chambar va to‘g‘ri ichak devoridagi morfologik o‘zgarishlarini o‘rganish // Fundamental va klinik tibbiyot axborotnomasi. – Buxoro, 2025. – № 6 (20). – B. 987–994.

КОРРЕЛЯЦИЯ МЕЖДУ ГИСТОЛОГИЧЕСКИМ ИНДЕКСОМ ПРОЛИФЕРАЦИИ Ki-67 И БИОХИМИЧЕСКИМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ КРОВИ ПРИ РАДИАЦИОННОМ ПОВРЕЖДЕНИИ ПОЧЕК И ПЕЧЕНИ У КРЫС

Шукуров Замон Умарович[1] , Саидов Саидамир Аброрович[2]

Мавлонов Анвар Ахмадович[1]

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино[1], Узбекистан, г. Бухара, ул. А. Навои, 1. Тел: +998 (65) 223-00-50. E-mail: info@bsmi.uz

Ташкентский фармацевтический институт (ТашФармИ)[2], Узбекистан, 100015, г. Ташкент, Миробoдский район, ул. Ойбек, 45. Тел: +998 71 256 45 04. E-mail: info@pharmi.uz

Аннотация: *Оценка степени радиационного повреждения паренхиматозных органов на гистологическом уровне традиционно считается «золотым стандартом», однако требует инвазивной биопсии с последующей иммуногистохимической обработкой, что существенно ограничивает её применение для динамического мониторинга в клинической практике и в условиях массового обследования лиц, подвергшихся радиационному воздействию. В связи с этим актуальным остаётся поиск доступных, малоинвазивных биохимических суррогатных маркеров, способных отражать гистологические изменения в тканях-мишенях с достаточной точностью.*

Ключевые слова: *индекс пролиферации, радиационное повреждение, лучевое повреждение печени, лучевое повреждение почек.*

Маркер Ki-67 — ядерный белок, экспрессируемый исключительно в пролиферирующих клетках (фазы G1, S, G2 и M клеточного цикла) и отсутствующий в покоящихся клетках (фаза G0) — широко применяется в онкоморфологии как надёжный количественный индикатор пролиферативной активности ткани. При радиационном повреждении снижение экспрессии Ki-67 отражает угнетение клеточного деления вследствие индуцированного клеточного цикла ареста и апоптоза. Вместе с тем данные о том, в какой мере динамика Ki-67 коррелирует с рутинными биохимическими показателями функции почек и печени (мочевиной, креатинином, ферментами, общим белком) в условиях фракционированного радиационного воздействия и последующей биокоррекции, в литературе практически отсутствуют. Это делает количественную оценку данной взаимосвязи актуальной как с научной, так и с практической точки зрения.

Цель: количественно оценить корреляционную взаимосвязь между гистологическим индексом пролиферации Ki-67 и биохимическими показателями крови в ткани почек и печени крыс при радиационном повреждении и его биокоррекции.

Материал и методы: у 100 белых беспородных крыс, разделённых на 10 экспериментальных групп (контроль, радиационное воздействие — кобальт-60, 0,1 Гр/сут × 30 сут, суммарно 3 гр, и три варианта биокоррекции — цинк, куркумин, их комбинация), индекс пролиферации Ki-67 определялся иммуногистохимически с автоматизированной морфометрией в программе QuPath-0.4.0. Биохимически в почках оценивались мочевина, креатинин, щелочная фосфатаза, цинк; в печени — билирубин, АЛТ, АСТ, общий белок. Корреляция рассчитывалась по методу Пирсона на уровне средних значений групп (n=10).

Результаты: Корреляционный анализ по методу Пирсона проводился на уровне средних значений по группам (n=10 групп), что позволило охватить весь диапазон изменений от нормы до максимального повреждения и полного восстановления на фоне биокоррекции. В ткани почек индекс Ki-67 продемонстрировал сильную отрицательную корреляцию с маркерами почечной дисфункции: с мочевиной r=−0,887 (R^2=0,786), с креатинином r=−0,877 (R^2=0,769), со щелочной фосфатазой r=−0,936 (R^2=0,876) — наиболее значимая связь во всём исследовании; а также сильную положительную корреляцию с уровнем цинка r=0,871 (R^2=0,759). Все четыре коэффициента статистически значимы (p<0,01). Особо следует отметить, что щелочная фосфатаза как фермент щёточной каймы проксимальных канальцев — именно той клеточной популяции, в которой оценивался Ki-67, — демонстрирует наибольшую согласованность с гистологическим показателем, что биологически закономерно. В ткани печени корреляции также оказались сильными, хотя несколько менее выраженными: с билирубином r=−0,788, с АЛТ r=−0,735, с АСТ r=−0,744, с общим белком r=0,852 — наиболее значимая связь среди печёночных показателей (все p<0,05). Тесная положительная корреляция Ki-67 с общим белком отражает параллельное снижение пролиферативной активности гепатоцитов и их синтетической функции под воздействием радиации. Анализ межорганных (кросс-) корреляций показал, что индекс Ki-67 почек с сопоставимой точностью предсказывает биохимические показатели печени (|r|=0,726–0,849), а индекс Ki-67 печени — биохимические показатели почек (|r|=0,727–0,865), что свидетельствует о системном характере радиационного повреждения. Индексы Ki-67 обоих органов коррелировали между собой на уровне r=0,924 (p<0,001) — наиболее сильная взаимосвязь во всём исследовании. Важной методологической находкой явилось частичное несоответствие между гистологическим (Ki-67) и биохимическим (цинк) ответом при монотерапии куркумином: индекс Ki-67 восстановился до

уровня, статистически неотличимого от монотерапии цинком ($p>0,05$), тогда как сывороточный цинк значимо не изменился (однофакторный ANOVA, $F=1,49$; $p=0,221$). Это свидетельствует о том, что механизм действия куркумина (преимущественно нейтрализация свободных радикалов и ингибирование NF-κB) не связан напрямую с нормализацией метаболизма цинка, и данное несоответствие осталось бы незамеченным при использовании только одного из двух методов оценки.

Вывод: между индексом пролиферации Ki-67 и биохимическими показателями функции почек и печени при радиационном повреждении и его биокоррекции установлена сильная, статистически достоверная корреляция ($|r|=0,73–0,94$ в пределах каждого органа; $|r|=0,73–0,87$ в межорганных парах), что свидетельствует о едином патофизиологическом континууме радиационного повреждения. Щелочная фосфатаза (почки, $r=−0,936$) и общий белок (печень, $r=0,852$) являются наиболее информативными биохимическими суррогатами гистологической пролиферативной активности и могут быть рекомендованы для малоинвазивного мониторинга степени радиационного повреждения органов. Выявленное частичное гисто-биохимическое несоответствие при монотерапии куркумином ($p=0,221$ для цинка) обосновывает необходимость комплексного — одновременно гистологического и биохимического — подхода к оценке эффективности радиопротекторных препаратов, поскольку ни один из методов по отдельности не даёт полной картины восстановительных процессов в ткани.

Список литературы

1. Легеза, В. И. Комбинированные радиационные поражения / В. И. Легеза, А. А. Тимошевский, А. Н. Гребенюк // Медицинская сестра. – 2017. – № 2. – С. 18–21.

2. Литвиненко, А. Н. Морфологические и морфометрические параметры ткани печени лабораторных животных после моделирования хронического стресса / А. Н. Литвиненко, Д. А. Зиновкин, Т. С. Угольник // Проблемы здоровья и экологии. – 2018. – № 4 (58). – С. 56–60.

3. Мавлютова, Г. Х. Повреждающие и стимулирующие эффекты ионизирующего излучения / Г. Х. Мавлютова, А. Б. Галлямов, Л. З. Рашитов // Международный научно-исследовательский журнал. – 2015. – № 7-5 (38). – С. 37–39.

SOCIO-HUMANITARIAN SPACE: HISTORICAL HERITAGE, CULTURE, AND INTEGRATION OF CIVILIZATIONS

QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARIDAGI SAYYIDLAR BILAN BOG‘LIQ TARIXIY-ME’MORIY MEROS: SHAKLLANISHI VA TARIXIY AHAMIYATI

F.U.Samarov

Qarshi xalqaro universiteti,

samarovfaxriddin07@gmail.com

+99893-933-43-43

Tayanch so‘zlar: *Termiz shahri, Shahrisabz, Qarshi tumani, sayyidlar, Amir Temur va temuriylar, qadriyat, madaniy meros, tarixiy obidalar, me’moriy inshoot, qadimshunoslik.*

*Ключевие слова**: город Термез, Шахрисабз, Каршинский раён, сайиды, Амур Темур и темуриды, ценности, культурное наследие, памятники истории, архитектурние сооружения, археология.*

Keywords: Termez city, Shakhrisabz, Karshi region, Sayyids, Temur and Temurids, values, cultural heritage, historical monuments, architectural structures, archeology.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, milliy tarixni mafkuraviy yondashuvlardan xoli holda, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida tadqiq etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Natijada xalqimizning boy tarixiy o‘tmishi, milliy davlatchilik an’analari hamda moddiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, ularga ilmiy jihatdan xolis baho berish imkoniyati kengaydi. Shu bilan birga, mamlakatimiz hududida joylashgan tarixiy-me’moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar va boshqa madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda restavratsiya qilish, mustahkamlash hamda kelgusi avlodlarga asl qiyofasida yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan

keng ko‘lamli ishlar milliy madaniy merosni muhofaza qilish bilan birga, uning tarixiy, ilmiy va ma’naviy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zlikni anglash, haqqoniy tarixni tiklash va yangilanayotgan O‘zbekiston tarixini yaratish haqida so‘z ketganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaganlar: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”[1.31].

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini o‘zida mujassam etgan eng qadimiy hududlar qatoriga kiradi. Mazkur vohalarda turli tarixiy davrlarga mansub ko‘plab me’moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar hamda ziyoratgohlar saqlanib qolgan bo‘lib, ular mamlakatimiz madaniy merosining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Ushbu yodgorliklar nafaqat mintaqaning tarixiy taraqqiyotini yoritishda, balki milliy davlatchilik, me’morchilik va madaniyat tarixini o‘rganishda ham muhim ilmiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi davlat hisobiga ko‘ra, bugungi kunda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jami ikki mingdan ziyod moddiy madaniy meros obyekti davlat ro‘yxatiga kiritilgan. Mazkur obyektlarni asrash, ulardan oqilona foydalanish hamda ularning saqlanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida qariyb ikki mingta tarixiy-madaniy meros obyektiga jamoatchi nazoratchilar (inspektorlar) biriktirilgan. Ushbu tizim tarixiy yodgorliklarning muhofazasini ta’minlash, ularga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldini olish hamda madaniy meros obyektlarini kelajak avlodlarga asl holida yetkazishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi[2].

Hozirgi kunda jamoatchi nazoratchilar tomonidan moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularning tarixiy qiyofasini saqlash hamda tarixiy-me’moriy yodgorliklarga nisbatan jamiyatda mas’uliyat hissini shakllantirishga

qaratilgan keng ko‘lamli targ‘ibot va tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur faoliyat tarixiy obidalarni asrab-avaylash madaniyatini yuksaltirish, ularga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish hamda madaniy meros obyektlarini kelajak avlodlarga butun holda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hududida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) avlodlari sifatida e’tirof etiladigan sayyidlar bilan bog‘liq ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklar mavjud. Ushbu obidalar islom sivilizatsiyasi, tasavvuf, diniy-ma’rifiy hayot hamda milliy davlatchilik tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Sayyidlar faoliyati bilan bog‘liq maqbara va me’moriy majmualar nafaqat diniy ziyorat maskanlari, balki xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini o‘zida mujassam etgan noyob obyektlar sifatida ham alohida ilmiy qimmatga ega. Shu bois ularning vujudga kelish tarixi, me’moriy xususiyatlari va bugungi kundagi saqlanish holatini tadqiq etish tarixshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Janubiy O‘zbekistonning qadimiy hududlaridan biri bo‘lgan Surxon vohasida ham shayxlar, avliyolar va tasavvuf namoyandalari bilan bog‘liq ko‘plab ziyoratgohlar hamda maqbaralar saqlanib qolgan. Ular orasida Sulton Saodat me’moriy majmuasi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur majmua sayyidlar sulolasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mintaqaning eng muhim diniy-ma’rifiy va tarixiy-me’moriy yodgorliklaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, Sulton Saodat me’moriy majmuasi bir vaqtning o‘zida emas, balki bir necha asr davomida bosqichma-bosqich shakllangan. Uning tarkibiga kiruvchi inshootlarning asosiy qismi X–XVII asrlar oralig‘ida bunyod etilgan bo‘lib, bu jarayon majmuaning me’moriy qiyofasi va tarixiy taraqqiyotida turli davrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Shu jihatdan Sulton Saodat majmuasi nafaqat diniy ziyoratgoh, balki Janubiy O‘zbekiston me’morchilik maktabining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim tarixiy-me’moriy manba sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega[3.110]. Sayyidlar

abadiy qo‘nim topgan bu muqaddas qadamjoda yigirmaga yaqin maqbaralar joylangan bo‘lib, bu dahmalarda 170 nafarga yaqin sayyidlar qabrlari joylashgan [4.90].

Avvalo “Sayyid” so‘zi haqida to‘xtalib o‘tsak. Sayyid so‘zi arabchadan “janob” ma’nosini anglatib, avlod ar-rasul — paygambarimiz Muhammad alayxissalom avlodlarining faxriy unvonidir. Shu bilan birga sayyid so‘zi to‘g‘risida tarixshunos olim Jaloliddin Mirzayev o‘zining “Termiz tarixi” nomli kitobida quyidagicha to‘xtalgan. “Musulmon dunyosida sharif, xo‘ja so‘zlari ayrim hollarda sayyid atamasining o‘rindoshi sifatida ishlatiladi. Ba’zan Muhammad alayxissalomning nevaralari Hasan avlodi sharif, Husayn avlodi sayyid unvonlari bilan alohida ajratiladi” [5.1].

Sulton Saodat me’moriy majmuasining shakllanish tarixi dastlab ushbu hududning nufuzli arboblaridan hamda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) avlodlaridan biri hisoblangan Hasan al-Amir (IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan) nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, majmuaning ilk me’moriy inshooti aynan Hasan al-Amir maqbarasi bo‘lib, keyinchalik uning atrofida yangi maqbaralar va boshqa me’moriy obyektlar bosqichma-bosqich bunyod etilgan. Shu tariqa mazkur maskan asrlar davomida sayyidlar sulolasining muhim ziyoratgohi va dafn majmuasi sifatida rivojlanib borgan.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari majmuaning dastlabki qurilish bosqichi X–XI asrlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Biroq bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy ansambl bir davr mahsuli emas, balki keyingi asrlarda amalga oshirilgan qurilish ishlari natijasida o‘zining yakuniy qiyofasini shakllantirgan. Bu esa Sulton Saodat majmuasining uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o‘tganini hamda turli davrlarning me’moriy uslublarini o‘zida mujassamlashtirgan noyob tarixiy yodgorlik ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur masala yuzasidan tarixchi olim S. Tursunov «Surxon vohasi arxitekturasi: o‘tmish va bugun» asarida Sulton Saodat majmuasining me’moriy tuzilishi va qurilish bosqichlariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Muallifning qayd etishicha: «Xalq orasida Sulton

Saodat majmui nomi bilan mashhur bo‘lgan maqbaralarning dastlabkilari X asrda bunyod etilgan bo‘lsa, qolgan inshootlarning asosiy qismi XV–XVII asrlarda qurilib, uzun hovlining ikki tomonida o‘zaro uyg‘un holda joylashtirilgan. Maqbaralar peshtoq hamda gumbaz bilan yopilgan chorsi xonalardan (9×9,05 m va 10,15×10,25 m) iborat».

Ushbu ma’lumotlar Sulton Saodat majmuasi bir necha asr davomida izchil rivojlangan me’moriy ansambl ekanligini hamda uning tarkibidagi inshootlar turli davrlarning qurilish an’analari va me’moriy yechimlarini o‘zida mujassam etganini ko‘rsatadi. Shu sababli majmua Janubiy O‘zbekistonning o‘rta asrlar me’morchilik tarixini, sayyidlar sulolasi faoliyatini hamda mintaqadagi diniy-ma’rifiy hayot taraqqiyotini o‘rganishda muhim tarixiy manbalardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi[6.55].

Tarixiy obidaning bugungi kunga qadar saqlanib qolgan maqbaralar majmui cho‘zilib borib, uzunligi 70 metrlik hovli atrofida turli davrlarga oid arxitektura-qurilish ishlari amalga oshirilgan. Mazkur sayyidlar hilxonasini tadqiqotchilardan B.Zasipkin, Y.Nekrasova va V.Filimonovlar XI – XII asrlarga oidligini qayd etsalar, Z.Hakimov X – XI asrlarga tegishli deb xulosa beradi. Sulton Saodat majmuida turli davrlarda arxeologik izlanishlar ham olib borilgan. Xususan, “Surxon tongi” gazetasining 2017 yil 11 noyabrdagi sonida Termiz arxeologiya muzeyining bo‘lim boshlig‘i SH. Rajabovning “Asrlarga teng qabr toshi” nomli maqolasida ushbu tarixiy obida hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar haqida quyidagilarni yozgan: XX asrning oxirlarida olib borilgan izlanishlar natijasida XI–XII asrlarga taalluqli bo‘lgan (91,5x 61x9 smga teng) qabr toshi topilgan bo‘lib, afsuski mazkur qabr toshi arxeologik jihatdan to‘liq saqlanib qolinmagan [7.4].

Termiz sayyidlarining jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va diniy nufuzi o‘rta asr yozma manbalarida ham alohida e'tirof etilgan. Xususan, temuriylar davri tarixnavisligining muhim namunalardan biri hisoblangan Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida Termiz sayyidlarining yuksak mavqei hamda Amir Temur

tomonidan ularga ko‘rsatilgan ehtirom haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu manbada Sohibqironning Hindiston yurishidan qaytish chog‘ida Termizga tashrif buyurgani va u yerda sayyidlar tomonidan yuksak hurmat bilan kutib olingani alohida qayd etilgan. Mazkur voqea Termiz sayyidlarining nafaqat diniy hayotdagi, balki Temuriylar davlati siyosiy va ma'naviy muhitidagi nufuzini ham yaqqol namoyon etadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy ushbu voqea tafsilotlarini bayon qilar ekan, Amir Temurning Termizdagi sayyidlar bilan uchrashuvi va ularga ko‘rsatgan yuksak ehtiromini quyidagicha tasvirlaydi: “Yakshanba kuni, oyning yigirma birida (29.03.1399) choshtgohda sohibqiron kema bilan Jayhun suyidin kechib tushdi. Ul tushkon yerda amirzoda Ulug‘bek va amirzoda Ibrohim mirzo va hazri muallo Bekisi Sulton va muhazzaroti tiiiqismat va jalolat Saroy Mulk xonim va To‘kal xonim va Tuman og‘o va o‘zga shohzodalar bor edilar. Xonzoda Aloal-Mulkkim nasabi sharifi hazrat Risolatqa, sall Allohu alayhi vasallamg‘a tegar edi, ul kun hazratqa to‘y berdi va yaxshi peshkashlar tortti” [8.220].

Temuriylar davrida ham Termiz sayyidlari o‘z nufuzlarini saqlab qola olganlar. Xususan, temuriyzoda Xalil Sulton (1405-1409 hukmronlik yillari) davrida Sulton Saodat maqbarasida ta’mirlash ishlari olib borilgan va bu yerda baland bo‘yli ayvon qurilgan [9.115].

Mazkur qadimiy inshootda XV asrda olib borilgan bunyodkorlik jarayonlarida qurilish ashyosi hisoblanadigan g‘ishtlarning o‘lchamlari diyarli bir-hil ya’ni 27–28 x 27–28 x 5 sm ni tashshil etadi. XVI asr ya’ni Shayboniylar davrida majmua hududida uch xonali katta imorat qad rostlab, uning g‘ishtining o‘lchami esa biroz kichikroq 25,5x 26x5,5 sm ni tashkil etgan.

Janubiy O‘zbekiston hududida sayyidlar va mashhur diniy arboblar faoliyati bilan bog‘liq tarixiy-me’moriy yodgorliklar orasida Shahrisabz shahrida joylashgan Dor us-Saodat me’moriy majmuasi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur majmua Temuriylar davri me’morchiligining muhim namunalaridan biri bo‘lib, o‘zining tarixiy, diniy va

madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, majmuaning bunyod etilishi XIV asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo‘lsa, uning asosiy me’moriy qiyofasi XV asrning birinchi yarmida to‘liq shakllangan.

Dor us-Saodat majmuasining vujudga kelishi Amir Temurning bunyodkorlik siyosati hamda uning tasavvuf namoyandalariga bo‘lgan yuksak ehtiromi bilan uzviy bog‘liqdir. Sohibqiron o‘z davrining mashhur mutasavvifi va ma'naviy peshvolaridan biri bo‘lgan Shayx Shamsuddin Kulolni o‘zining pirlaridan biri sifatida ulug‘lagan hamda unga doimo yuksak hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Shu bois mazkur majmua nafaqat me’moriy inshoot, balki Temuriylar davridagi diniy-ma’rifiy qarashlar va ma’naviy qadriyatlarning muhim timsoli sifatida ham baholanadi.

Dor us-Saodat majmuasining bunyod etilish tarixi yuzasidan tarixchi olimlar P.Ravshanov va N.Xushvaqov «Qashqadaryo tarixiga sayohat» nomli asarida qimmatli ma’lumotlarni keltiradilar. Mualliflarning qayd etishicha, Shayx Shamsuddin Kulol 1370-yilda vafot etgan bo‘lib, Amir Temur o‘zining siyosiy va harbiy muvaffaqiyatlarini ko‘p jihatdan pirining duolari va ma’naviy ko‘magiga bog‘lagan. Shu sababli Sohibqiron Shayx Shamsuddin Kulol xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning nomiga maqbara bunyod etish haqida farmon bergan. Mazkur voqea Amir Temurning diniy arboblar va tasavvuf namoyandalariga nisbatan ko‘rsatgan yuksak ehtiromining tarixiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[10.148].

Ushbu maqbaraga Amir Temur 1360 yilda vafot etgan otasi Tarag‘ay Bahodirning ham jasadini 1374 yilda uning vasiyatiga binoan Shayxning oyoq tomoni – poyiga ko‘chirgan. Sayidlar gumbazi maqbarasidagi qurilish ishlari 1437-1438 yillar davomida Mirzo Ulug‘bekning farmoniga binoan to‘liq tugallagan.

Mazkur tarixiy obida haqida Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar)”da quyidagi qimmatli ma’lumotlarni qayd etgan: “Keshda katta uylar, masjidlar ko‘p. Xususan, Temurbek tomonidan qurilgan bir masjid alohida ajralib turadi. Masjidning qurilishi

hali tugamagan. Unda Temurbekning otasi dafn etilgan maqbara bor” [11.146-147]. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, muallif qayd etgan qadimiy maqbara aynan Gumbazi sayyidon ya’ni (sayyidlar uyi) maqbarasidir.

Qarshi shahridan 15 km janubi-g‘arbiy hududidagi Patron qishlog‘ida qadimiy yodgorliklardan biri “Yetti tug‘ ota” ziyoratgohi joylashgan. Ushbu muqaddas qadamjoda sayyidlar avlodi bo‘lmish, “Yetti tug‘ ota” nomi bilan mashhur bo‘lgan, shayx Mirsayyid Fatxulla va uning avlodlari, Sayyidzodalar nomi bilan ataluvchi qabrlar joylashgan [12: 85].

Eng avvalo ziyoratgoh nomi bilan bog‘liq bo‘lgan tug‘ so‘ziga to‘htalib o‘tamiz. Ushbu atama qadimgi Sharq mamlakatlarida hukumdorlik, vazirlik, beklik ma’nolarini anglatib, dastlab ho‘kiz yoki otning dumidan yasalgan [13:689]. Shu bilan birga yana shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda respublikamiz hududida joylashgan tarixiy muzeylarda 33 hil shakldagi tug‘lar saqlanmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarining harbiy va siyosiy hayotida turli ramziy belgilar, jumladan tug‘lar islom dini kirib kelishidan ancha oldin ham qo‘llanilgan. Ular hukmdorlik ramzi, harbiy belgi hamda qabila va urug‘larning o‘ziga xos timsoli sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Demak, tug‘ an’anasi mintaqada qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishi islom davridan avvalgi madaniy va siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Islom dinining Movarounnahr hududiga kirib kelishi natijasida mazkur ramzning tashqi ko‘rinishi, vazifasi va mazmunida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi diniy-ma’naviy muhit ta’sirida tug‘lar avvalgi harbiy-siyosiy ramz sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan holda, islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan yangi mazmun kasb etdi. Natijada ularning shakli, bezak unsurlari va qo‘llanilish doirasi bosqichma-bosqich takomillashib bordi.

XIV asrdan boshlab tug‘lardan nafaqat davlat va harbiy ramz, balki diniy-ma’naviy belgi sifatida ham keng foydalanila boshlandi. Ayniqsa, Temuriylar davrida

tug‘larning siyosiy va diniy nufuzi yanada ortib, ular tantanali marosimlar, harbiy yurishlar hamda muqaddas qadamjolar bilan bog‘liq udumlarda muhim atribut sifatida qo‘llanildi. Shu davrda tug‘larni saqlash, olib yurish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq alohida mansablar, jumladan tug‘bardor, tug‘ egasi va tug‘ og‘asi kabi lavozimlar joriy etilib, davlat boshqaruvi hamda saroy marosimlari tizimida muhim o‘rin egallagan.

Muqaddas ziyoratgoh hududida tarixda qad rostlab turgan tug‘ haqida muallif Ruhiddin Akbarov “Patron qishlog‘i tarixi” kitobida quyidagilarni qayd etgan: “Yetti tug‘ baland qilib ko‘tarilgan bo‘lib, unga ilingan qo‘ng‘iroqlarning ovozi uzoqlardan eshitilib turgan. Tug‘ so‘g‘i yalov, bayroq ma’nolarini anglatgan” [14: 95].

Ushbu ko‘hna obida ming afsuski, o‘zining tarixi qismini to‘laligicha saqlab qola olmagan. Mazkur tarixiy inshoot bir nechta qadimiy imoratlardan ibor bo‘lganligi manbalarda qayd etilgan. Xususan, R. Akbarovning yuqorida nomi keltirilgan kitobida qadimiy obida to‘g‘risida quyidagilar qayd etgan: “Qadimiy masjid yonida bir nechta binolar va quduq bo‘lgan. Shu bilan birga o‘tmishda obidaga kirish qismida uzun mezona ham bor edi” [15: 93].

Mazkur muqaddas qadamjoning vujudga kelishi to‘g‘risida “Yetti tug‘” shajarasida quyidagilar qayd etilgan: “Mir sayyid Fathulla hazrati Porso valining Fayzul – anvar nomlik mozorlariga kelib, shu yerda istiqomat qilib qoldilar va ul zotga nasibangiz Nasafda, degan buyruq bo‘ldi. Buzrukvor tog‘alari amri va aziz arvohlar bashorati bilan uning (Yetti tug‘ ota) Nasafga tobe Ko‘hnabog‘ mavzeiga borish ma’lum qilindi. (Ko‘hna bog‘) hozirgi paytda taniqli va mashhur Patron qishlog‘i bo‘lib, u janob (Mir sayyid Fathulla) bu yerga keldilar va honaqoh (masjid) bino qildilar va istiqomat qilishni ixtiyor etdilar. Va masjidning sharqiy tomonida dafn etildilar”[16: 91].

Ko‘hna xonaqoh o‘rnida saqlanib qolgan eski masjid to‘g‘risida me’morshunos olima L.Man’kovskaya quyidagilarni qayd etib o‘tgan: “Qarshi tumanining Patron

qishlog‘idagi Xalfa Eshon masjidlariga o‘xshab ketadi, u masjid binolari X asrdayoq hajmi kichik pishgan g‘ishtdan qurilgan” [17: 92]. Qadimgi masjidning ichki qismi 10x10 metrni tashkil qilib, ustida 4x4 metrli to‘rt gumbaz joylashgan. Ular masjidning ichki o‘rtasidagi aylanasi 6 metr bo‘lgan asos “guldasta”ga suyanadi. Muqaddas obidaning bu uslubda bunyod etilishi XVI-XVII asrlarga ya’ni xonliklar davriga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi vaqtda tarixiy maqbaraning uzunligi 28 metr, eni 6.20 metr. Maqbara ichidagi qabrlarning uzuligi 5-3 metr, eni esa 2.30 metrni tashkil etadi. Mazkur maqbaralarda qabr yozuvlari ham mavjud bo‘lib, ular o‘sha davr tarixini bilib olish uchun o‘ziga hos yozma manba bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘hna obida va uning atrofida yigirma beshdan ortiq qadimiy qabr toshlari bo‘lib, oradan o‘tgan uzoq yillar davomida ayrim qabr toshlarning bir qismidagi yozuvlar o‘chib ketgan.

Tarixiy manbalarga qayd etilishicha Yetti tug‘ ota ya’ni Mir Sayyid Fathulla payg‘ambar Muhammad (s.a.v) ga 26-avlod bo‘lib tutashadi. Ruhiddin Akbarov bu to‘g‘risida shunday yozgan: “1.Mir Sayiid Fathulla, 2. Sayyid Abdulla Muhammmad Poyanda, 3. Abdulfazldarvesh, 4. Sharofiddin Husayn, 5. Sayyid Kamoliddin Husayn Xorazmiy, 6. Shahobiddin Husayn,7. Faxriddin Husayn, 8. Sayyid Ahmad, 9. Shamsiddin Husayn, 10. Sayyid Kamoliddin, 11. Sayyid Burhoniddin Qilich O‘zgandiy, 12. Sayyid Kamoliddin Husayn, 13. Shoh Husayn, 14. Sulton Muhammad, 15. Sayyid Ahmad, 16. Ubaydulla Afzal, 17. Sayyid Abdulla, 18. Imom Muhammad tolib, 19. Imom Ali Muso Rizo, 20. Imom Muso Kozim, 21. Imomi Ja’far Sodiq, 22. Imomi Muhammad Boqir, 23. Imomi Zaynulobidiyn, 24. Imomi Husayn r.a. 25. Fotima r. anha, 26. Muhammad (s.a.v)” [18: 107-108].

Mazkur muqaddas qadamjo hamda uning hududida joylashgan tarixiy masjid 1998-yilda davlat tomonidan muhofaza qilinadigan madaniy meros obyekti sifatida davlat ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu maqom yodgorlikning tarixiy, me’moriy va madaniy ahamiyatini e’tirof etish bilan birga, uni asrash, ilmiy jihatdan o‘rganish va

kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi muhofaza choralarini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Hozirgi kunda majmua hududida tarixiy muhitni saqlash va yodgorlikning jozibadorligini oshirishga qaratilgan obodonlashtirish hamda infratuzilmani takomillashtirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, istiqbolda majmua atrofida keng ko‘lamli yashil hudud va bog‘ barpo etish, sayyidlar sulolasi bilan bog‘liq tarixiy manbalarni kompleks ravishda tadqiq etish, qadamjoning tarixiy taraqqiyoti hamda me’moriy xususiyatlarini chuqur ilmiy o‘rganish bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur chora-tadbirlar yodgorlikning ilmiy, madaniy va turistik salohiyatini yanada yuksaltirish, shuningdek, uning tarixiy-madaniy meros sifatidagi ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qashqa vohasidagi sayyidlar nomi bilan bog‘liq yana bir tarixiy-me’moriy obida Kasbi tumanida joylashgan Mir Haydar ota nomi bilan mashhur bo‘lgan ziyoratgoh hisoblanadi. Vohadagi ushbu qishloq ham bir necha o‘n asrlik tarixga ega qo‘lgan ko‘hna manzillardan biri hisoblanadi. Mazkur qishloq tarixda turli nomlar bilan ham atalgan. Jumladan, o‘rta asrlarda yashab o‘tgan arab sayyohi va geografi Istaxriy (taxm 850-934 yillarda yashab o‘tgan) ushbu qishloq nomini Kasba yoki Kasaba ya’ni qo‘rg‘on degan ma’noda qayd etib o‘tgan [19. 253].

XIII–XIV asrlarda yashab o‘tgan ushbu tarixiy shaxsning asl ismi Amir Shamsiddin Haydar ibn Jaloliddin bo‘lib, xalq orasida Mir Haydar ota nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Mazkur tabarruk zotning tavallud sanalari haqida bir qancha tahminlar mavjud. Jumladan, tarixchi olimlar O.Bo‘riyev va A.Xo‘jayorovlarning “Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari” kitobida bu to‘g‘risida quyidagilar qayd etilgan: “673 xijriy – qamariy ramazon oyining uninchi kuni subhi tong mahali (1275 milodiy) Jaloliddin Shayx Hazratlarining uylarida Mohinurbibi onamizning dardlari kuchaydi. Ovsinlari

Sokinayinurni doya chaqirib kelishga yubordilar. Turtinchi farzand dunyoga keldi. Ul aziz inson Xurosonning Qoyim shaxri, SHo‘rdaryo bo‘yida dunyoga keldilar” [20. 201-202].

Sulton Mir Xaydar otaning nasablari bevosita Paygambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallamning qizlari Fotimai Zahro va Ali ibn Abu Tolib (roziallohu anhu)ning farzandlari Imom Xusaynga borib taqalishi tarixiy manbalarda qayt etib o‘tilgan. Xususan, Amir Shamsiddin Xaydar, kabr toshidagi bitilgan shajaraga kura, Rasulullоh sollallohu alayhi vassalamga 16-avlod bo‘lib yetishadi [21. 200].

Islom olamida nihoyatda katta nufuzga ega bo‘lgan mazkur tabarruk zot Xurosonda o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, Xorazmda undan so‘ng ma’lum vaqt Buxoroda istiqomat qiladi. Oradan ma’lum muddat o‘tgach o‘zlarining ok tuyalarida Buxorodan sharkka tomom yulga chikadilar. Xazratning tuyasi hozirgi Kasbi tumani Kasbi kishlogi hududiga kelganda chukadi va shu yerda ko‘nim topadi. Mir Xaydar ota ushbu hududda umrlarining oxirigacha qoladilar. Oradan vaqtlar o‘tishi bilan bu joy atroflarida aholi manzilgohlari kengayib, yirik kishlokka aylanadi.

Amir Shamsiddin Haydar amirilning favot etgan yili to‘g‘risida ham turlicha ma’lumotlar mavjud. Jumladan, qadimshunos olim A. Choriyev bu haqida quyidagilarni qayd etgan: “Xoja Shamsuddin ota Kasbiga 31 yoshida kelgan va bu yerda o‘z maktabini yaratadi. Sulton Mir Haydar ota 92 yoshga kirib, 766/1366 yilda vafot etgan va Kasbida dafn etilgan” [22. 7].

Majmua hududida joylashgan tarixiy-me’moriy inshootlar XI–XVI asrlar davomida bunyod etilgan. Bu to‘g‘risida me’morshunos olima L.Mankovskaya quyidagilarni qayd etgan: “Nomozgoh masjidning bunyod etilganiga taxminan 380 yillar bo‘lgan. Masjid to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, besh gumbazli, bir-biriga tutashgan xonalardan iborat koshona bo‘lgan. Gumbaz oldida keng va katta saxn bo‘lib, unda ramazon va qurbon xaytlarida minglab kishilar nomoz va ibodatlarni amalga oshirgan. Bu yerda Abdullaxon II tomondan qurilgan sardoba, hiyobonlar

mavjud. Sardoba hozir ham kishining diqqatini o‘ziga tortib turadi. Sardobaning tashki qismi diyametri 18,3 metr, ichki tomoni 16 metrdan iborat” [23. 86-89].

Mazkur tarixiy yodgorliklar majmui to‘g‘risida M.To‘rayeva quyidagi qimmatli ma’lumotlarni qayd etgan: “Bu yodgorlik uch davr maxsulidir. Makbarada XIV asrga oid sag‘ana va marmar toshlar, XV asrga tegishli masjid, XVI asrga ta’luqli me’morchilik ustalarining belgilari bor. Bu tumandagi eng muxim yodgorlik xisoblanadi” [24. 9].

Kasbi tumanidagi Sayyidlar avlodidan tegishli ushbu me’moriy yodgorlik (XI–XVI asrlar) 90x40 metrli yopik va yarim ochik binolar hamda 3 xonadan iborat. Keng saxnli janubiy xovlidan qator ustunli masjidga (VI asrlarda bunyod etilgan) kirib, undan o‘rtadagi hovliga o‘tiladi. Xovlining shimoliy va sharkiy tomonidan ko‘hna makbaralar, janubiy va g‘arbiy tomonidan esa XVI asrga oid tarixiy ayvon joylashgan. 11,6x6,6 metrni tashkil etadigan ushbu tarixiy ayvonning g‘arbiy devori yokalab o‘tgan yulak shimoliy hovliga olib boradi.

Mustaqillik yillarida mazkur muqaddas qadamjo hududida keng ko‘lamdagi ta’mirlash, qayta tiklash majmua hududida joylashgan tarixiy-me’moriy inshootlarni mustahkamlash ishlari amalga oshirildi. Xususan, ko‘hna masjid va uning yaqinidagi qadimiy mezona uch metrlik tuproq uyumlari ostidan chiqarilib asl holatiga keltirildi. Bugungi kunda mazkur ziyoratgohga tashrif buyuruvchilar uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan.

Sayyidlar nomi bilan bog‘liq yana bir tabarruk manzilgoh Qamashi tumani Langar qishlog‘idagi Langar ota nomi bilan mashhur bo‘lgan ziyoratgoh hisoblanadi. Mazkur muqaddas qadamjo qadimiy maqbara va ko‘hna masjiddan iborat. Tarixiy maqbara yaqinida sayyidlar nomi bitilgan qadimiy dahmalar aniqlangan. Xususan, S.Tursunov tahriri ostidagi Imom Termiziy va termiziy allomalar. nomli monografiyada sayyidlar dahmasi to‘g‘risida quyidagi qimmatli ma’lumotlar qayd etilgan: “Maqbara eshigi oldi yo‘lakning ikki cheti tosh terilgan supani eslatadi. Supalarda Sayyid Hasandan keyin

o‘tgan uning yirik martabali avlodlari o‘ng tomondagisi 11 nafar erkak, chap supadagi 6 nafar ayol qabri joylashgan. Qayd etilgan jami 17 ta dahma ustiga qora rangdagi marmar tosh o‘rnatilgan” [25. 266].

Qadimiy marmar toshlarning hajmi uzunligi 165 – 170 sm, balandligi esa 55 sm, eniga 35 smni tashkil etib, diyarli barchasi bir hil o‘lchamda. Qabr toshlarning tepa qismi cheti aylanasiga juda noziklik bilan hoshiyalangan bo‘lib, usti tomoni chetida shamchiroq uchun konussimon chuqurcha ham ishlangan.

Sayyidlar abadiy qo‘nim topgan dahmalar yaqinidagi ushbu tarixiy maqbaraning bunyod etilganligiga qarib VI asr vaqt bo‘lgan bo‘lsada, o‘zining jozibasi va mahobatini yo‘qotgani yo‘q. Katta Langar maqbarasi masjiddan bir soy beridagi tepalikda joylashgan. Mazkur ko‘hna yodgorlikni bunyod etilishi tarixini professor Yu.Ergasheva “Katta Langar majmuasi” risolasida quyidagicha yozgan: “Bu yodgorlik masjiddan tahminan 100 yil keyin qurilgan bo‘lib, me’morchilik uslubi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasinikiga o‘xshashdir” [26. 10].

Shayx Abul Hasan Ishqiyning o‘g‘li Muhammad Sodiq shayx hazratlari tomonidan otasi shayx Abul Hasan Ishqiy dafn etilgan dahmaning ustida qurilganligi yozilgan. Ko‘hna maqbaraning o‘lchami 14,0x12,5 m, peshtoqi gumbazli, bir xonali (5,2x5,2), to‘rt tomonlama kesishgan ravoqqa tayanganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Tarixiy va mahobatli maqbarada beshta qabr joylashgan. Mazkur beshta qabrdan uchtasi o‘zining o‘lchami va qo‘yilgan yodgorlik toshlari bilan alohida ajralib turadi. Bu uchta qabrning marmar taxta va yodgorlik toshi bir xil xajmda bo‘lishi bilan o‘rtadagisining yodgorlik toshi yuza qismidagi o‘yma bezaklari boshqacha, hoshiyali, yuzasiga Qur’on oyatlari bitilgan.

Me’moriy inshoot hududida turli yillarda bir qator mustahkamlash va ta’mirlash ishlari ham amalga oshirilgan. Xususan, 1562 – 1563, 1748, 1807 – 1808 yillarda ta’mirlash ishlari olib borilganligi to‘g‘risida qadamjo ustunida o‘rnatilgan tunukalarga

yozib qo‘yilgan [27. 272]. Katta Langar masjidi O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi o‘rta asrlarga tegishli ajoyib me’moriy san’atining noyob namunasi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqbara 1905 yilda sodir bo‘lgan zilzila vaqtida shikastlangan. Mahalliy aholi vakillari tomonidan XX asrning 50-yillarida poydevor qicmi tashqi tarafdan betonlanib, qo‘shimcha mustahkamlangan.

Katta Langar ota majmuasi hududida 2020 yilda olib borilgan ta’mirlash, mustahkamlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari to‘g‘risida Qamashi tumani G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Rustamov o‘zining “Katta Langar – e’tiqod vodiysi” nomli risolasida quyidagilarni yozgan: „Tarixiy qadamjoda olib borilgan qurilish-ta’mirlash ishlari uchun 2020 yilda Qashqadaryo viloyati hamda Qamashi tumani mahalliy byudjetlariga qo‘shimcha tushirilgan mablag‘lar va saxovatpesha homiylar hisobidan 10 milliardga yaqin mablag‘ sarflandi“ [19. 28].

Xulosa qilib aytganda, Janubiy O‘zbekiston hududida joylashgan sayyidlar bilan bog‘liq tarixiy-me’moriy obidalar xalqimizning ko‘p asrlik moddiy va ma’naviy merosining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar nafaqat me’morchilik san’atining nodir namunalari, balki mamlakatimizning diniy-ma’rifiy hayoti, davlatchilik an’analari, tasavvuf madaniyati hamda islom sivilizatsiyasi tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Shahrisabzdagi Dor ut-Tilovat va Dor us-Saodat majmualari, Termizdagi Sulton Saodat majmuasi hamda sayyidlar faoliyati bilan bog‘liq boshqa tarixiy obidalar o‘zining me’moriy yechimi, tarixiy shakllanish bosqichlari va madaniy ahamiyati bilan milliy madaniy merosimizning eng qimmatli obyektlari sirasiga kiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy asosda restavratsiya etish, konservatsiya qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada uzoq yillar e’tibordan chetda qolgan ko‘plab tarixiy obidalar qayta tiklandi, ularning asl me’moriy qiyofasini saqlab qolishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ayniqsa,

sayyidlar bilan bog‘liq tarixiy-me’moriy majmualarning davlat muhofazasiga olinishi, ularni restavratsiya qilish hamda ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilayotgani milliy madaniy merosni asrash sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur obidalarni o‘rganish faqat ularning me’moriy xususiyatlarini tadqiq etish bilan cheklanmasligi lozim. Ularning vujudga kelish tarixi, sayyidlar sulolasining mintaqa ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotidagi o‘rni, ziyoratgohlarning shakllanish bosqichlari hamda tarixiy manbalarda aks etgan ma’lumotlarni kompleks tarzda o‘rganish tarixshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, yozma manbalar va arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish hamda tarixiy-me’moriy merosni zamonaviy ilmiy metodlar asosida tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tarixiy-me’moriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish va kelajak avlodlarga asl holida yetkazish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, bunday yodgorliklar xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan bebaho meros hisoblanadi. Ularni muhofaza qilish va ilmiy asosda o‘rganish nafaqat madaniy merosni saqlashga, balki tarixiy turizmni rivojlantirish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, tarixiy-me’moriy yodgorliklardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, bunyodkorlik, vatanparvarlik va tarixiy merosga mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois sayyidlar bilan bog‘liq tarixiy-me’moriy obidalarni chuqur o‘rganish, ularni asrab-avaylash va keng jamoatchilik orasida targ‘ib etish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH. M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. -T.: “O‘qituvchi”, MU, 2021. – 182 b.

2. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat madaniy meros boshqarmalarining 2021 yil hisoboti.

3. Surxondaryo buyuk o‘tmishdan yorqin kelajak sari. Kitob-albom. Toshkent 2017.

4. Termiz tarixidan lavhalar. Maqolalar to‘plami. “San’at” jurnali, 2008 yil 3-son. 129 b.

5. Jaloliddin Mirzayev. Termiz tarixi. –Toshkent, 2001. 129 b.

6. Tursunov S. Surxon vohasi arxitekturasi o‘tmish va bugun. –T.: “Yangi nashr”, 2014 y. -186 b.

7. “Surxon tonggi” gazetasi 2017 yil 11 noyabr.

8. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T.: “Sharq”, 1997.y -384 b.

9. Tursunov S. N, Pardayev, T. R, Ahmedova, G. O‘, Maxmadiyarova, N. Narzullayeva, N. Tursunova. O‘zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san’at yodgorliklari tarixi (monografiya). –Termiz. “Surxon Nashr”. 2017. -286 b.

10. Ravshanov P, Xushvaqov N. Qashqadaryo tarixiga sayohat. “Ilm-ziyo-zakovat”, T.: 2020. – 272 b.

11. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). “O‘zbekiston”, T.: 2010. 261 b.

12. Jo‘rayeva S. O‘zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi xayotida tutgan o‘rni. Tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. –T.: 2022. -332 b.

13. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 8-jild. –T. O‘zME DIN, 2004.-704 b.

14 Akbarov R. Patron qishlog‘i tarixi. Qarshi, “Nasaf”, 2013. – 182 b.

15. Shu asar.

16. Shu asar.

17. Mankovskaya L.Y. Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari – Toshkent, “O‘zbekiston”, 1979 - 99 b

18. Shu asar.

19. Istaxriy. Kitab al-masalik val-mamalik (Yo‘llar va o‘lkalar kitobi). Tadqiqot, arab tilidan tarjima, izohli va ko‘rsatkichlar muallifi R. T. Xudoyberganov -T.: “Fan”, 2019. -480 b.

20. Bo‘riyev O., Xo‘jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. Monografiya. – T.: “Voris - nashriyoti”, 2022. – 250 b.

21. Shu asar.

22. Choriyev A. Hazrati Sulton Mir Haydar ota manoqibi. “Yangi asr avloli”, T., 2017. 238 b.

23. Shu asar.

24. To‘rayeva M. Sulton Mir Haydar ota majmuasi. – Karshi, - 2020. 14- b.

25. Tursunov S, Murtazoyev B, CHo‘tmatov J, Sharipov F. Imom Abu Iso At Termiziy va Termiziy allomalar. Monografiya

26. Ergasheva Y. Katta Langar majmuasi. Risola, Qarshi, „QarMII“, 2020. -40 b.

27. Islom Ensiklopediya: Shayx Abdulaziz Manzur tahriri ostida. – T, O‘zME Diq, 2017. - 672 b.

28. 19. Rustamov Sh. Katta Langar - e'tiqod vodiysi – T.: „Fan va texnologiyalar", 2020. – 112 b.

XX ASRNING 20-50-YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANIDA JAMOALASHTIRISH VA UNING OQIBATLARI

Oromov Quvvatbek No‘rmo‘min o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
oromovquvvatbek@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada 1920–1950-yillarda Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan sho‘ro islohotlari, yer-suv munosabatlari va jamoalashtirish jarayonlari yoritilgan. Yer-suv islohoti natijasida boylar, amaldorlar va ruhoniylarning mulklari musodara qilinib, ko‘plab dehqonlar ham quloq qilinadi. 1930-yillarda jamoa xo‘jaliklari tashkil etilib, og‘ir mehnat sharoitida past hosildorlik kuzatiladi. 1950-yillarda “Eski Anhor” kanali qurilishi va paxtachilikka ixtisoslashuv vohaning qishloq xo‘jaligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Maqola sovet davri islohotlarining xalq hayotiga salbiy oqibatlarini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sho‘ro islohotlari, milliy chegaralar, Qashqadaryo viloyati, yer-suv islohoti, feodallar sinfi, musodara, sug‘oriladigan yer, lalmikor yer, jamoa xo‘jaligi, quloq qilish, bosmachilik, dehqonchilik, paxtachilik, Eski Anhor kanali, hosildorlik, chorvachilik, Kaganovich xo‘jaligi, Jeynov qishloq sho‘rosi, majburiy jamoalashtirish, sovet davri oqibatlari.*

Аннотация. *В статье рассматриваются аграрные реформы и коллективизация в Кашкадарьинской области в 1920–1950-е годы. Земельно-водная реформа привела к конфискации имущества баев, чиновников и духовенства, а также к раскулачиванию крестьян. В 1930-е годы создавались колхозы, где условия труда были тяжелыми, а урожайность низкой. В 1950-е годы строительство канала «Эски Анхор» и специализация на хлопководстве*

существенно изменили сельское хозяйство региона. Автор подчеркивает негативные последствия советских реформ для жизни простого народа.

Ключевые слова: *Советские реформы, национальные границы, Кашкадарьинская область, земельно-водная реформа, феодалы, конфискация, орошаемые земли, богарные земли, колхоз, раскулачивание, басмачи, земледелие, хлопководство, канал Эски Анхор, урожайность, животноводство, хозяйство Кагановича, Джейнавский сельсовет, принудительная коллективизация, последствия советской эпохи.*

Annotation. *The article explores agrarian reforms and collectivization in Qashqadaryo region during the 1920s–1950s. The land-water reform resulted in the confiscation of property from wealthy landowners, officials, and clergy, while many peasants were also dispossessed. In the 1930s, collective farms were established under harsh labor conditions with low productivity. In the 1950s, the construction of the "Eski Anhor" canal and specialization in cotton farming significantly transformed agriculture in the region. The article highlights the negative impact of Soviet reforms on the lives of ordinary people.*

Keywords: *Soviet reforms, national borders, Qashqadaryo region, land-water reform, feudal class, confiscation, irrigated land, dryland farming, collective farm, dekulakization, Basmachi movement, agriculture, cotton farming, Eski Anhor canal, crop yield, animal husbandry, Kaganovich farm, Jeynov village council, forced collectivization, Soviet legacy.*

Kirish. 1920-yillaring boshlarida milliy o‘lkalarda ham sho‘ro islohotlari qizg‘in tus oladi. Respublikalar o‘rtasida milliy chegaralar belgilab beriladi. O‘z navbatida, respublikalar ichida ham viloyatlar, tumanlar tuziladi. Jumladan, 1924-yilning 1-noyabrida Qashqadaryo viloyati ham tashkil topgan edi. O‘sha paytda Qashqadaryo viloyati 6 volostni o‘z ichiga olgan Qarshi, 3ta volostdan iborat G‘uzor va 4 volostdan iborat Shahrisabz uyezdlaridan tashkil topgan edi. Mamlakatda o‘tkazilgan yer-suv

islohoti zo‘ravonlik va ommaviy qirg‘inlarning boshlanishi edi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Butun Sho‘ro davlatida bo‘lgani kabi Qashqadaryoda ham “Yer-suv islohoti” 1929- yilning bahoriga kelib nihoyasiga yetgan edi. Islohat oqibatida feodallar sinfi yo‘q qilinadi. Bu yillarda Qashqadaryo vohasida 989ta xo‘jaliklar tag-tugi bilan yo‘q qilinadi. Ulardan 339 tasi boylarga, 195 tasi amir amaldorlariga, 174 tasi ruhoniylarga, 53 tasi savdogarlarga, 41 tasi sudxo‘rlarga tegishli eli. Bu xo‘jaliklarning yo‘q qilinishi oqibatida 1395 gektar sug‘oriladigan yer, 588 gektar lalmikor yerlar, 1001 bosh ot, 1194 bosh ho‘kiz, 274 bosh tuya[9] tortib olinadi. Sovet hukumati faqat boylar, amaldorlar va ruhoniy, savdogarlar mol-mulkini tortib olish bilan cheklanib qolmagan.

Natijalar va muhokama. Sovet hukumati davrida o‘z yerida mehnat bilan kun ko‘radigan dehqonlar ham islohot girdobiga tushib, quloq bo‘lib, ashyolaridan mosuvo etilgan edi. Qashqadaryoda shu sabablarga ko‘ra musodara etilgan yerlar 2000 gektar sug‘oriladigan va 812 gektar lalmikor yerdan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 2 812 gektarni tashkil etgan edi. Sho‘ro saltanati yo‘qlikka yuz tutgandan 1937 yilda Jeynovdagi jami jamoa xo‘jaliklari 2650 gektar yerga kuzgi va bahorgi bug‘doy, 1070 gektar yerga esa arpa ekishlari[10] lozim bo‘lgan. Xususan, «Yuksalish» jamoa xo‘jaligi kuzgi bahorgi bo‘lib 420,5 g yerga don ekishi ko‘zda tutilgan. Hosildorlik Fayzulla Xo‘jayev nomli jamoa xo‘jaligida pastrok bo‘ladi. Komissiya kuzgi bug‘doydan 1,5 s, arpadan 6 s hosil berishni chamalaydi. Boshqa jamoa xo‘jaliklarining ham hosildorligi bundan ortiq emas. Har yili Jeynov arig‘i tozalangan, shox-shabbalar yig‘ishtirib olingan. 1936-37 yilda, masalan, 7190 metr hajmda ish bajarilishi ko‘zda tutilib, 240 odam[11] ishga jalb etilgan. Hamisha ham bu ariqdan suv oqavermagan. Bahor paytlari suv mo‘l bo‘lganda dalalarning katta qismi sug‘orilgan. Sug‘orilmay qolgan yillarda esa hosildorlik tushib ketgan. Bu yillarda Jeynov sho‘rosida hali jamoa xo‘jaligiga

[9] Шу асар, 163- бет.
[10] ҚВАҚФ. 31-жамғарма, 1-рўйхат, 11-иш, 1-бет.
[11] ҚВАҚФ. 31- жамғарма, 1-рўйхат, 10-иш, 130- бет.

kirmagan, alohida xo‘jalik yuritayotgan oilalar (yakkaxo‘jaliklar) bo‘lgan. Bu turdagi xo‘jaliklarga ham ekish rejasi belgilab berilgan. Masalan, 1937-38 yillarda Jeynov qishloq sho‘rosi bo‘yicha yakkaxo‘jaliklar 4 gektar bug‘doy, 2 gektar arpa ekishlari shart qilib qo‘yilgan. Jamoa xo‘jaligi a’zolarining moddiy sharoiti, iqtisodiy ahvoli ancha og‘ir edi. Buni quyidagi dalillar orqali ham bilish mumkin: 7162 jamoa xo‘jaligi a’zolari xo‘jaligining 681 tasida birorta ham mol-hol yo‘q edi. Sigirsiz jamoa xo‘jaligi a’zolari 4436 ta edi. qo‘yi bor kishilar 1255 ta hisoblanardi, 174 kishining 2 tadan sigiri bo‘lagan. Bu, aksar qishloq mehnatkashlarining g‘irt kambag‘al bo‘lganligini tushunib yetish uchun kifoya qiladigan raqamlar, albatta. Buning ustiga, quloq qilishlar asorati, «bosmachilik izdihomlari, xalqning bor-budidan ajralishiga, zada bulib, o‘zga yurtlarga, boshqa respublikalarga ketishlariga sabab bo‘ladi. 1936-yilda birgina Beshkent tumanining o‘zidan 1200 xo‘jalik chiqib ketadi. Yakka- xo‘jaliklardan 730 tasi boshqa joylardan boshpana izlashga majbur bo‘ladi, Jeynov qishloq sho‘rosida 1937-38 yildan keyin 3 ta jamoa xo‘jaligi qoladi: Kaganovich, «1 baynalminal» va «Yuksalish», 1939-yilning 13-fevralida qishloq sho‘rosida bo‘lgan yig‘ilishda uchala jamoa xo‘jaligining ko‘klamgi ekish ishlari muhokama etiladi. Jumladan, Kaganovich jamoa xo‘jaligining baynalminal» va «Yuksalish» 15- fevralga qadar, «11 baynalminal jamoa xo‘jaligining 20-fevralga qadar ekishni tugallashi qat’iy vazifa qilib qo‘yiladi. Jamoa xo‘jaliklaridagi mehnatning og‘irligi isbot talab etmaydi. Qashqadaryo viloyatida azaldan sug‘orma dehqonchilikka alohida e’tibor berib kelingan. Vohada g‘allachilik, paxtachilik, poliz ekinlari ekish, sabzavotchilik, shuningdek bog‘dorchilik mahsulotlarini yetishtirish, uzumchilik, anorchilik va ipakchilik qishloq xo‘jaligining asosiy yo‘nalishlari sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chorvachilik asosan go‘sht-sut mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Aholining ma’lum bir qismi qoramolchilik, qo‘ychilik, parranda boqish bilan shug‘ullanardi. 1953-1954 yillarda mashhur “Eski Anhor” kanali qurilib ishga tushirilishi viloyatning quyi - Koson, Qarshi, Beshkent tumanlarida suv miqdorining sezilarli oshishiga ta’sirini ko‘rsatadi.

1954-yilga kelib, Kaganovich nomli (hozirgi Jeynov) jamoa xo‘jaligining sug‘oriladigan yeri 750 gektarga yetkazildi. Zarafshon daryosining suvi Jeynovga kelishi jamoa xo‘jaligining dehqonchilik sohasiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi[12]. O‘sha yili Beshkent tumanidagi 18 ta xo‘jalik paxta ekishga ixtisoslashtirilgan edi. Jeynovlik dehqonlar ham birinchi marotaba 220 gektar yerga chigit ekib, paxtachilikdagi omadlarini sinab ko‘rishga bel bog‘laydilar.Umuman, tuman bo‘yicha 1954-yilda hammasi bo‘lib 5200 gektar maydonga chigit qadaladi. Kaganovich nomli jamoa xo‘jaligi 1954-yilga kelib bir qadar o‘zini tutib olishga erishadi. Shu yilning yakunlariga Qaraganda, jamoa xo‘jaligi ko‘p jihatdan tumanda to‘rtinchi o‘ringa ko‘tariladi. Bu uzoq, yillar davomida kamquvvat bo‘lib qolgan xo‘jalikning mo‘ljalni to‘g‘ri olayotganidan darak edi. 1954-yilning 26-yanvarida Kaganovich nomli jamoa xo‘jaligi Xo‘jahayron qishloq, sho‘rosidagi Oxunboboyev nomli jamoa xo‘jaligi bilan qo‘shib yuboriladi. Buluch qishlog‘i yana Jeynov qishloq sho‘rosi qaramog‘iga o‘tadi. Firqa qo‘mitasining qaroriga asosan (1955 yil 8 sentabr) Zulfiqor Xo‘janov jamoaga rais etib tayinlanadi. Shu kundan boshlab u jamoa xo‘jaligida kadrlarni tanlab joy-joyiga qo‘yishni boshlaydi. Avvalo, raisning muovinligiga Hayitboy Safarovni tayinlaydi[13]. Toshpo‘lat Toshmatov agronomlik vazifasini olib boradi. Fermalarda, brigadalarda ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Muhimi, jamoa xo‘jaligi a’zolarining mehnat kunlariga qanday bo‘lmasin haqto‘lash yo‘llarini qidiradi va Murod Yomg‘irov ixtiro qilgan usulni afzal deb biladi. Chunonchi, qariligi sababli yaroqsiz topilgan ming bosh qo‘yni jamoa xo‘jaligi a’zolarining to‘qqiz oyda ishlagan mehnat kunlariga taqsim qilishdan o‘zga chora yo‘q edi. Jamoa xo‘jaligi a’zolari qariyb bir yilga yaqin ish haqi olmagan va ular bilan hisob kitob qilish uchun jamoa xo‘jaligi xazinasida ortiqcha pul ham yo‘q edi. Shu sababli, 1955-yil oktabrida bo‘lgan jamoa xo‘jaligi umumiy majlisining 18-raqamli qarorida “Qariligi sababli yaroqsiz deb

[12] ҚВАҚФ.30 Жамғарма, 1-рўйхат, 22-иш, 200-бег
[13] Кўрсатилган асар, 166 бет.

topilgan 1000 bosh qo‘y jamoa xo‘jaligi a’zolarining to‘qqiz oyda ishlagan mehnat kunlariga taqsimlanib berilsin” deb ko‘rsatiladi. Ushbu mollarning bahosi oriq-semizligiga qarab turli miqdorda belgilanadi. Bunday tadbirkorlik ila birinchidan jamoa xo‘jalik o‘z a’zolari bilan ish haqlarini hisob-kitob qilgan bo‘lsa, ikkinchidan qari qo‘ylarni o‘z hisobidan soqit etgan. Bu ham xo‘jalik rahbarining tadbirkorlik ko‘rinishidan biri hisoblanadi.

